o'tdi. Bolgarlar uning hujumidan sarosimaga tushib orqaga chekina boshladilar lekin keyin to'satdan uning yolg'iz jang bo'linmasi bilan jang qilayotgani payqagan Krum tez orada vaziyatni o'z foydasiga xal etishga kirishdi. Shunday vaziyatda Bolgarlarga qarshi urushda yaxshi harakat qilayotgan Anatoliya qo'shin qo'mondoni Leo o'zining xiyonotkor siyosati bilan Mixaeldan imperatorlik tojini olib urushni davom ettiradi. Bolgar podshosi Krum tavakkal qadam tashlab, ochiq hududda ustun bo'lgan dushman qo'shinlariga qarshi shiddatli jangga kirishdi. Krum shu bilan birga bolgar qo'shinlarini ikki qismga birinchi qismini Adrianopolni qamal qilish uchun qoldirib, o'z qo'shinlari bilan imperator poytaxti tomon yo'l olib 17-iyulda bolgarlar shahar devorlariga yetib keldi. Kuchli mudofaa devorlari bilan o'ralgan Vizantiya poytaxtini Krum bir necha bor qamal qilib shaharni egallashga kirishgan. Konstantinopol aholisi Krumning kuch-quvvatidan ancha tashvishda edilar qolaversa unga yangi laqab "yangi Senaxerib" deya murojaat qilar edilar. Vizantiya imperatori muqarrar xalokatdan imperiyani saqlab qolish uchun diplomatik aloqalarni tiklashga kirishdi. Leo Krumning harakatlariga javoban ikki monarxning Oltin shox qirg'og'ida uchrashuv o'tkazishni taklif qildi. Krum rozi bo'ldi. Ertasi kuni uchrashuvda hiyla ishlatildi va bundan ko'zlangan maqsad Bolgar podshosini o'ldirish edi lekin Krum qochishga erishdi. Bolgar podshosi Krum keyingi bir necha kunda Vizantiya imperiyasidan qasos oldi. Shaharning butun atrofi, nafaqat devorlarga yaqin, balki Oltin Shoxning narigi tomonidagi va Bosforning Yevropa qirg'og'idagi cherkovlar, monastirlar va ajoyib villalar bilan mashhur bo'lgan boy shahar va qishloqlar ham talon-taroj etib vayron qilindi. Bolgarlar Daonin, Redesto, Apria qal'alarini yer bilan yakson qildilar. Shundan so'ng janubga, G'aniya qirlariga bolgar qo'shini yurishi davom etdi. Keyin, Krum shimolga, Adrianopolga (Edirne) yurishni davom ettirdi. Bolgar podshosi shiddatlik zarbalari qolaversa shaharning oziq-ovqat yetishmasligi ularni taslim bo'lishga olib keldi. Leo diplomatik yordam so'rab 814- yilda Franklar imperiyasiga murojat qiladi lekin ulardan yordam ololmagan imperator Pannoniyada ulkan qo'shin to'playotgan Bolgar podshosi Krumning Konstantinopolga yurishdan tashvishda edi. 814-yil 13 aprel kuni bo'lib o'tgan voqea Vizantiyani muqarrar halokatdan saqlab qoldi va o'sha kuni Bolgar podshosi Krum to'satdan Konstantinopolga yurish paytida vafot etdi.

Krum Birinchi Bolgariya podsholi tarixini o'zgartirdi. Uning birinchi yutug'i Pannoniya va Bolqon bolgarlarining birlashishi ikkala qabilaga ham yangi hayot baxsh etdi. Va keyin u jangda ikki imperatorni o'ldirish va uchinchisining qulashiga sababchi bo'lib bu bolgarlar tarixidan muhim o'rin egalladi. Krum o'z podsholigini mustahkamlashdan avval



avarlarni magʻlub etgandan soʻng, avar asirlaridan imperiyaning qulashi sabablarini soʻradi. Ular oʻz imperiyalarini turli sabablarga koʻra: hasad va bir-birlarini ayblash, oʻgʻriliklar va sudyalar oʻrtasidagi til birlashtirish, ichkilikbozlik, poraxoʻrlik, tijorat ishlarida insofsizlik, sud ishlariga ishtiyoq va adolat mezonlarini yoʻqligini aytishdi. Krum bu javobdan Bolgar podsholigida bunday jinoyatlarning oldini olish uchun qonunlarni qabul qildi: birinchi navbatda, bir kishi boshqa bir jinoyatda ayblansa, sud jarayoni boʻlishidan oldin ayblanuvchi soʻroq qilish kerak edi va agar u ayibdor boʻlsa jazolanishi yoki aksi boʻlsa ozod etilishi kerak edi; ikkinchidan, oʻgʻrilarga mehmondoʻstlik qilish uchun egasining barcha mol- mulki musodara qilinib, oʻgʻrilarning suyaklari sinishi kerak edi; uchinchidan, barcha uzumlar yoʻq qilindi bunga sabab ichkilikbozlik va nihoyat, odamlar mollarini musodara qilish jazosi ostida poraxoʻrlik, tijorat ishlarida insofsizlikka, qarshi kurashib xalq va muhojirlarga yordam berishlari kerak edi. Bolgar podshosi Krum chiqargan barcha qonunlar oʻz xalqi uchun muhim ahamiyatga ega edi va podsholikning yuksalishiga olib keldi. Krum aristokratiyani tashkil etgan bolgarlardan farqli oʻlaroq, slavyan fuqarolarini ragʻbatlantirish siyosatini davom ettirdi. Krum islohotlari xususan maʼmuriy islohotlar, asosan slavyanlar yashaydigan hududlarning Bolgar podsholigiga qoʻshilishi proto-bolgar etnosining slavyanlar tomonidan oʻzlashtirilishi jarayonini tezlashtirdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Литаврин Г.Г. Борьба болгарского народа против византийского ига (XI– XII вв.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. М., 1954 С. 100.
2. Литаврин Г.Г. Болгария и Византия в XI–XII вв. М., 1960. С. 450.
3. Литаврин Г.Г. Болгарские земли под византийским владычеством (1018– 1186) // Краткая история Болгарии. С древнейших времен до наших дней. М., 1987. С. 101–119.
4. Златарски В. История на Българската държава през средните векове. Монография. — София: Захарий Стояно: Св. Климент Охридский, 2007. — (Българско историческо наследство). С. 200.
5. Горянов Б.Т. Борьба болгарского народа против византийского ига // История Болгарии. Т. 1. М., 1954. С 107–122
6. Державин, Н. С. История Болгарии: Болгария времен Первого и Второго царств (679-1393). — Изд-во Академии наук СССР, 1946. 650 Ст.

**JAMIYAT BOSHQARUVIDA RAHBAR TOMONIDAN  
QO'LLANILAYOTGAN UMUMIY NAZARIY METODLAR**

**Choriyev Abduhalim Nazar o'g'li**

[choriyevabduhamid@gmail.com](mailto:choriyevabduhamid@gmail.com)

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Maqolada boshqaruv va boshqaruv jarayoni tushunchalariga tarif hamda rahbarlik faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshqaruv, rahbar, natija, personal, prinsip, identifikatsiya, ijtimoiy, faoliyat, mas'uliyat.

**Abstract:** The article gives scientific practical suggestions and recommendations for the development of tariff and leadership activities on the concepts of management and management process.

**Keywords:** Management, leader, result, personal, principle, identity, social, activity, responsibility.

*Shiddat bilan qilinadigan ishlarni bamaylixotir, sokinlik bilan bajarib bo'lmaydi.*

*Publiy Sayrus*

Har bir inson vaqt, mehnat sarflayotgan ijtimoiy zaruriyati, vazifasi yohud topshiriqlari yig'indisi yanada samarali, foydali va manfaatli bo'lishi uchun harakat qiladi. O'z o'rnida bu harakatlar esa individual (yakka) va kollegial (jamoaviy) holatlarda amalga oshiriladi. Bunda harakatlar ko'zlangan maqsad, maqsadga erishish yo'lidagi amallar hamda amallarga prinsipial yondashuv bilan harakterlanadi. Ma'lumki, yakka tarzda ishlash nisbatan qulayroq, jamoaviy ishlashda esa har qanday qulaylik, yutuqlar va inqiroz ham jamoaning ijtimoiy muhiti, hamda jamoaga boshchilik qiladigan shaxsning boshqaruvchanlik qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Tom ma'noda to'g'ri yo'lga qo'yilgan boshqaruv ko'p jihatdan e'tiborli hisoblanadi.

Shuningdek, savol paydo bo'lishi tabiiy. Boshqaruv o'zi nima?

Boshqaruv - boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan maqsadga muvofiq va doimiy ta'sir etish jarayoni hisoblanadi. [1:8] Umumiy ma'noda boshqaruv subyektini

rahbar bo'lsa, boshqaruv obyekti xodim sifatida qaraladi. Bunda rahbar korxonaga yoki tashkilot manfaati uchun qaror qabul qiluvchi va unga javobgar shaxs, xodim esa ijrochi vazifasini bajaradi. Korxonaga va tashkilotlarda iqtisodiy, ilmiy, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish kabi bir qator ko'plab sohalarda faoliyat olib borilgan ekan, faoliyatning ham ko'zlangan va erishilgan natijalarning ham asosida rejalashtirilgan, muvofiqlashtirilgan, kommunikativ boshqaruv jarayoni yotadi.

Boshqaruv jarayoni - tashkilot resurslarini u tomonidan o'zining maqsadlariga erishish uchun shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlarning majmuasi. [2:180] Ta'kidlangan jarayonni ya'ni uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlar majmuini maqsadlarga erishish uchun har tomonlama to'g'ri yo'naltirish eng avvalo rahbar zimmasiga yuklanadi. Shuning uchun rahbar shaxs doimo rivojlanish uchun harakatda bo'lishi va faoliyatining ijobiy izchilligini ta'minlay olishi zarur.

Boshqaruvning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'iy nazar, rahbar o'z faoliyati natijalari va o'zi rahbarlik qilayotgan bo'linma faoliyatiga javobgardir. "Rahbar mas'uliyati" tushunchasi mansabdor shaxslarning boshqaruv faoliyatiga baho berishda, ularning o'ziga topshirilgan ishga munosabatini tavsiflashda keng qo'llaniladigandir. Boshqaruv mansabdor shaxs anglab yetgan va qabul qilgan barcha vazifalarni sifatli bajarish zaruriyatini ifodalaydi. [3:7] Darhaqiqat, har bir rahbarda birinchi navbatda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat tushunchalari shakllangan bo'lishi kerak. Chunki unga berilgan mansab yoki unvonning o'zi avvalo ishonch va ikki barobar mas'uliyatdir. Bildirilgan ishonchni oqlash uchun xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashish tashkilot yutuq'ining yarmiga tengdir. Shunday ekan boshqaruv jarayoni va rahbarlar faoliyatida "Rahbar mas'uliyati" eng muhim tushunchalardan biridir.

Rahbar mas'uliyati - rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini aks ettiradi hamda alohida shaxs, xodim mas'uliyatidan farq qilib, ko'lami kengligi, salmog'i bilan ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'z g'alari oldidagi, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas'uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg'usidir. Mas'uliyatli rahbar, eng avvalo, o'ziga, so'ngra boshqalarga nisbatan talabchan bo'ladi. Rahbar faoliyatidagi barcha salbiy hodisalar esa ana shu mas'uliyat hissining yo'qligidan kelib chiqadi.[4:19] Albatta, o'zi sidqi dildan ishlayotgan rahbar ish faoliyati va natijani sifat



jihatdan yaxshilash uchun xodimlarini ham ortidan ergashtira oladi. Kezi kelganda xodimlaridan korxonaga yoki tashkilot maqsadi uchun samarali va foydali mehnat faoliyatini ham talab qila oladi.

Bunday rahbarlarning bunaqa holatda talabi qanoatlantirilishi, xodimlarining o'zidan vakolat bo'yicha baland personal buyrug'ini bajarish emas balki, rahbar bo'lishiga qaramay jamoa va tashkilot uchun hamda xodimlar bilan teng harakat qilgan, o'zlari uchun namuna bo'ladigan, motivatsiya oladigan shaxs bilan birgaligidan vujudga keladi.

Har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deb atadik. Fikrlash va harakat bir paytning o'zida ro'y beradi, boshliq o'zi o'ylashi, o'zi mantiqiy xulosaga kelishi va ularni amalga oshirishga kirishishi kerak. [5:7] Avallo, rahbar o'zi boshchilik qilayotgan tizm, tuzulma haqida yetarlicha dunyoqarash, bilim, tajriba va ko'nikmaga ega bo'lishi shart. O'z navbatida intiluvchan hamda har tomonlama o'tkir zehni bo'lishi ham zarur. Chunonchi, har bir xodimning vazifasini tushunish, fursat talab qilganda ularga amaliy yordam ko'rstish juda muhim. Shundan kelib chiqadiki, rahbar ma'lum bir sohani emas balki qo'shimcha sifatida faoliyatiga hamisha chambarchas bo'g'liq bo'lgan, iqtisodiy, huquqiy bilimlarni egallagan bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi va chet tilini bilishi kerak. Yuqorida keltirilganlarning barchasi boshqaruv rivoji hamda ko'zlangan natijaga erishishda rahbarlar uchun juda muhim omillardandir. Har qaysi rahbar qanchalik tajribali va bilimli bo'lmasin, faoliyati davomida qarorlar qabul qilishga, qaror ijrosiga e'tibor bilan yondashishi lozim.

Bunda jamoatchilik, ya'ni tashkilot a'zolari, xodimlar fikri kerak bo'ladi. To'g'ri oxirgi qarorni rahbar qabul qiladi. Ammo ko'zlangan maqsad va natija tashkilotniki, jamoaniki bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan berilishi kerak bo'lgan maslahatlar boshqaruv jarayonida boshqaruv maslahatlari deb ataladi.

Boshqaruv maslahatlarini berish - rivojlanish strategiyasini o'zgartirishga, qo'shimcha o'sish manbalarini topishda murakkab muammolarni yechish uchun rahbarlarga mutaxassis yordamidir. Bu bilan u o'z-o'zini tashkil etish va rivojlantirish mexanizmini yuritadi. Maslahatchi - ijtimoiy menejer, umumijtimoiy va umuminsoniy ne'matalar tashuvchisi, u jamiyat hayotining turli jabhalariga yaxshi moslashadi.

Tashkilotdagi holatni majmuaviy baholashdagi maslahatlarida u butun hayoti davomida to'plagan bilimlarini ishga soladi. Juda ham murakkab masalalarni yechish uchun

u eng yuqori toifali ekspert va mutaxassislarni jalb qiladi. [6:62] Boshqaruv maslahatlari turli sohalarda turlicha bo'lishi mumkin. Biroq undan ko'zlangan maqsad korxon va tashkilotning rivojlanishida foydalanishdir. Maslahatlar doim rivojlanish va foyda uchun xizmat qilishi maslahatchilarga bog'liq. Boshqaruv maslahatchilarini rahbarlar turli ko'rinishda jalb qiladilar. Ular yollangan yoki tashkilot xodimlari ichidan tanlangan bo'lishlari mumkin. Xodimlar orsidan tanlangan maslahatchilar rasmiy va norasmiy o'rinbosarlar sifatida xizmat qilishadi.

Maslahatlar ko'lami va sifati mavjud muammolarni bartaraf qilishda, rivojlanish ko'rsatgichlarini hamisha yuqori bo'lishida xizmat qilishi kerak.

Rahbarning professional rivojlanishida shunday obyektiv va subyektiv omillar mavjudki, ular shaxsning boshqaruv sohasida ulg'ayishiga to'sqinlik qilib, shu bilan birga uning professional jihatdan o'zini yana bir bor namoyon etishiga, kasb sohasi bilan o'zining mutanosibligini aniqlashtirishga asos bo'ladi. Har qanday professional inqiroz - shaxsning kasb bilan identifikatsiyalashuvi borasidagi ziddiyat bo'lib, bunda insonning kasb sohasida o'zini yangitdan ifodalash zaruriyati uning avvalgi identifikatsiyasini saqlab qolish niyati bilan ziddiyatga boradi. [7:65] Tabiiyki, har qanday harakat, faoliyat doim ham o'ylanganidek bir tekisda davom etmaydi.

Ayniqsa, ishga, shaxsiy va jamoaviy professionalizm rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar rahbarlik faoliyatida juda ko'p uchraydi. Ularning sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatish darajasida bo'lishi ancha ayanchli. Bunday holatlarga duch kelmaslik uchun boshqaruv jarayonini strategik yo'lga qo'yish juda muhimdir. Sababi kichik xato ham ulkan oqibatlar olib kelishi mumkin. Aytib o'tilganidek asosiy javobgar rahbar bo'ladi. Shuning uchun bunday holatlarda ko'p jabr rahbarlar zimmasida qoladi. Bazi rahbarlar iloji boricha xato qilmaslikka harakat qilishadi, ammo yuqoridagi vaziyatlar vujudga kelsa muammoni bartaraf qilishga kirishadilar.

Bazi rahbarlar esa barchasini o'z holiga tashlab qo'yishadi yoki xizmat vazifasidan bo'sh uchun ariza topshiradilar. Aslida to'siqlar ham rivojlanish uchun yana bir turtki bo'lsa ajab emas. Chunki ayrim rahbarlar muammo yechimini topib, o'zlari uchun yana bir bor tajriba maktabini o'tagan vaziyatlardan motivatsiya oladilar. Bu esa rahbarlik rivojining yana bir pog'onaga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

Prezidentimiz rahbarlarga shunday fikrlar bilan yuzlanadi. "Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan

sizga bo'ysinishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan teppa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. ...Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman, adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og'irini yengil qilish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bog'indagi rahbarlar - u vazir yoki hokim bo'ladimi, idora yoki tashkilot boshlig'i bo'ladimi, o'zining odob-ahloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lishi zarur". [8:27] Bu fikrlar rahbarlar yana bir bor o'ylab ko'rishlari hamda o'zlari uchun o'rinli xulosa chiqarishlari uchun xizmat qilishi lozim. Gap shundaki, nisbiy tushuncha tor doiradagi qarashlar va kechagi kun sarqitlari bugungi kun vaziyatiga umuman to'g'ri kelmayapti. Endilikda rahbarlar ortiqcha hashamat, noodatiy karyeralar uchun ishlashmayapti. Maoshlarini

belgilangan vaqtda xonalarida o'tirib olishmayapti. Rahbarlar jamiyat va xalq ichiga kirib bormoqdalar. Boshqaruv sohasida ham jamiyatni, davlatni tanazzul uchratadigan ayanchli holat bo'lgan korrupsiyaning sekin-astalik bilan bo'lsada yo'qolishi, muammolar, takliflar joyida hal etilishi yoki ko'rib chiqilishi bu sohada ham o'sish kuztilishiga asos bo'lmoqda.

Albatta, har qaysi soha rivoji biz uchun muhim. Boshqaruv jarayonlarida rahbarlikning ham rivoji asosiy jihat bo'lishi kerak. Chunki barcha sohalar o'zaro bog'liq va bu bog'liqlik negizi boshqaruv sohasidir. Shunday ekan, yuqorida keltirilgan jamiki fikrlar, takliflar, tavsiyalarni yanada chuqurroq o'rganish va amal qilish, boshqaruv sohasi hamda rahbarlik jarayonida o'z natijalarini berishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. E.Xojiev. Davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy asoslari. // Toshkent. - "Yangi kitob", 2017. 257 bet
2. A.Haydarov. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. O'quv qo'llanma // Toshkent. - "Kamalak" nashriyoti, 2019. 192 bet
3. A.Xolov. Boshqaruv qarorlari ijrosini ta'minlashda rahbar mas'uliyati. // - Toshkent: "Akademiya", 2014, - 124 bet
4. O'sha manba. 19-bet.
5. N.Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. - Toshkent, - "Yangi asr avlod" 2016,-



132 bet

6. N.Rahmatullayeva, A.Kamolov. Ijtimoiy menejment. // O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2017. - 288 b
7. I.Mahmudov. Boshqaruv professionalizimi: psixologik tahlil. // - Toshkent: "Akademiya" nashriyoti, 2011. - 304 bet
8. O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. Boshqaruv hikmati. // - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "Ta'lim" nashriyoti, 2018, - 168 bet

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV MASHG'ULOTLARINI  
ZAMONAVIY TASHKIL ETISHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH**

**Djurayev Botir Abdusalyamovich**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

e-mail: [djbotir2017@gmail.com](mailto:djbotir2017@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqola oliy ta'lim sohasida bulutli texnologiyalardan foydalanishga bag'ishlangan. Mavjud bulutli joylashtirish va texnik xizmat ko'rsatish modellari ko'rib chiqiladi, Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** bulutli texnologiyalar, oliy ta'lim, bulutli hisoblash, masofaviy ta'lim, axborot texnologiyalari.

Zamonaviy jamiyat - bu axborot manbalariga katta ehtiyojni talab qiladigan axborot jamiyati. Axborot jamiyatida ishchilarning aksariyati axborotni ishlab chiqarish, qayta ishlash va saqlash bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlari talabalari yaxshi mutaxassis bo'lishlari uchun nafaqat yuqori sifatli ta'lim olishlari kerak, bu shubhasiz oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi hisoblanadi, balki axborot bilan ishlashni, undan o'z maqsadlarida foydalanishni ham o'rganishi kerak. raqobatdosh ustunlik beradi. Ko'pgina oliy ta'lim muassasalari mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ham kunduzgi, ham sirtqi ta'lim dasturlarini amalga oshirmoqda. Ushbu dasturlar masofadan turib amalga oshirilishi mumkin, bu esa universitetdan zamonaviy texnologiyalar, ya'ni texnik va dasturiy ta'minotdan foydalanishni talab qiladi.

Oliy ta'limda o'quv faoliyatini samarali boshqarish vositalaridan biri ilmiy va ta'lim faoliyatini axborotlashtirishdir. Bundan tashqari, institutlarning axborotlashtirish darajasi uning raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir.

Bulutli texnologiyalar - axborotni masofadan saqlash va qayta ishlash texnologiyasi, ya'ni Internet tarmog'i orqali oxirgi foydalanuvchiga kompyuter infratuzilmasi va xizmatlarini taqdim etish. Bulutli hisoblash - bu model bo'lib, uning asosiy maqsadi tarmoqda joylashgan ma'lumotlarga talab bo'yicha kirishni qulay va universal tarzda ta'minlash bo'lib,

uni foydalanuvchiga minimal xarajat bilan tezda taqdim etish mumkin. Bulutning ishlashi yuklab olingan ma'lumotlarni cheksiz saqlashni ta'minlaydi.

Bulutli texnologiyalar Internet orqali hisoblash texnikasi resurslari va imkoniyatlaridan foydalanishni ta'minlash modelidir. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda va talabga ega.

Ta'lim faoliyatini tashkil etishda bulutli texnologiyalardan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri istalgan joydan va istalgan vaqtda axborot va resurslardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashdir. Foydalanuvchilar kompyuter, smartfon yoki planshet yordamida Internet orqali o'z fayllari, ilovalari va boshqa resurslariga kirishlari mumkin. Bu, ayniqsa, ta'lim muassasasidan uzoqda materiallar va ma'lumotlar bilan ishlashga muhtoj bo'lgan talabalar va o'qituvchilar uchun qulaydir.

Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar talabalar va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va ma'lumot almashishni samarali tashkil etish imkonini beradi. Bulutli platformalar va xizmatlar tufayli foydalanuvchilar hujjatlarni osongina almashishlari, umumiy loyihalar yaratishlari, real vaqt rejimida fikr va mulohazalar almashishlari mumkin. Bu ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida chuqurroq o'zaro hamkorlik va hamkorlikka yordam beradi.

Bulutli texnologiyalardan foydalanishning yana bir afzalligi shundaki, u maxsus dasturiy ta'minot va resurslarga kirishni osonlashtiradi. Ta'lim muassasalari o'z talabalari va o'qituvchilariga ish va o'rganish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan matn protsessorlari, elektron jadvallar, taqdimot dasturlari va boshqalar kabi bulutga asoslangan ilovalar va vositalardan foydalanishni ta'minlashi mumkin. Ushbu yondashuv dasturiy ta'minotni litsenziyalash va yangilash xarajatlarini kamaytiradi, shuningdek, foydalanuvchi qurilmalarida dasturiy ta'minotni o'rnatish va ularga xizmat ko'rsatish jarayonini soddalashtiradi.

Bulutli hisoblash xizmatlarining uchta asosiy modeli mavjud: xizmat sifatida dasturiy ta'minot, xizmat sifatida platforma va xizmat sifatida infratuzilma. Xizmat sifatida dasturiy ta'minot (SaaS) modelida iste'molchi bulutli infratuzilmada ishlaydigan va veb-brauzer yoki dastur interfeysi orqali kirish mumkin bo'lgan provayderning ilovalaridan foydalanadi. Foydalanuvchi infratuzilma, operatsion tizim yoki muayyan ilovalar sozlamalarini boshqara olmaydi, u faqat unga taqdim etilgan muhitda ishlashi mumkin.

Ikkinchi model "xizmat sifatida platforma" yoki xizmat sifatida platforma (PaaS) bo'lib, unda foydalanuvchi nafaqat ilovalarda ishlashi mumkin, balki operatsion tizim,



dasturiy ta'minot, ishlab chiqish vositalari, test va ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatiga ega. Aytishimiz mumkinki, foydalanuvchi ijara uchun platforma oladi. Mijoz operatsion tizim sozlamalarini o'zgartira olmaydi, lekin ko'p sonli ilovalarni boshqarishi va muhit konfiguratsiyasini sozlashi mumkin.

Uchinchi model - "xizmat sifatida infratuzilma" yoki xizmat sifatida infratuzilma (IaaS). Bu erda mijoz qayta ishlash va saqlash vositalarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi, shuningdek, o'ziga kerakli dasturlarni o'rnatish imkoniyatiga ega. Aynan shu model odatda oliy o'quv yurtlarida qo'llaniladi, chunki u talabaga virtual mashinadan to'liq foydalanish imkonini beradi.

Bulutli joylashtirishning bir nechta modellari ham mavjud: xususiy bulut - bitta tashkilot va uning bo'linmalari yoki filiallari tomonidan qo'llaniladi; ommaviy bulut kirishni cheklamaydi va hamma uchun ochiqdir; ommaviy bulut umumiy manfaatlarga ega bo'lgan bir nechta tashkilotlar tomonidan qo'llaniladi; gibrid bulut bir vaqtning o'zida bir nechta bulutlarning xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyatini zamonaviy tashkil etishda bulutli texnologiyalar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular o'qituvchilar va talabalar o'rtasida samarali ma'lumot almashish va hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, o'quv va tadqiqot materiallaridan foydalanishni soddalashtiradi.

Bulutli texnologiyalardan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri bu butun dunyo bo'ylab o'quv materiallarini taqdim etish imkoniyatidir. Talabalar ma'ruzalar, darsliklar, maqolalar va boshqa materiallardan, qaerda bo'lishidan qat'i nazar, osongina foydalanishlari mumkin. Bu, ayniqsa, talabalar darslarga shaxsan qatnasha olmasalar, masofaviy ta'lim uchun foydalidir. Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar talabalarga real vaqtda loyihalar ustida ishlash va boshqa jamoa a'zolari bilan materiallarni almashish imkonini beradi. Bu faol hamkorlik va fikr almashishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshiradi.

Ta'limda bulutli texnologiyalarning yana bir afzalligi - test sinovlarini tashkil etish va talabalar ishini tekshirishni soddalashtirishdir. O'qituvchilar onlayn testlar va topshiriqlarni yaratishlari va keyin ularning natijalarini avtomatik ravishda tekshirishlari mumkin. Bu o'qituvchilarning qog'ozlarni qo'lda tekshirishga sarflagan vaqt va kuchini tejashga yordam beradi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, bulutli texnologiyalardan foydalanish kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minotini sotib olish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Bulutli xizmatlar odatda arzonroq narxga ega, chunki ular ijara yoki obuna asosida mavjud. Bundan tashqari, ta'lim muassasalari server uskunalarini saqlash va saqlash xarajatlaridan qochishlari mumkin.

Shu bilan birga, bulutli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq bir qator muammolar va xavflarni ham hisobga olish kerak. Bularga barqaror bo'lmagan Internet ulanishlari, ma'lumotlarning yo'qolishi va axborot xavfsizligi tahdidlari kiradi. Talabalar va o'qituvchilar ushbu muammolardan xabardor bo'lishlari va ma'lumotlarini himoya qilish choralarini ko'rishlari kerak.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyatini zamonaviy tashkil etishda bulutli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifati va qulayligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ular axborot almashinuvi, hamkorlik va o'quv jarayonini tashkil etishni yaxshilashga yordam beradi. Biroq, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va xavflarni hisobga olish va tegishli himoya choralarini ishlab chiqish kerak. Bulutli texnologiyalar ma'lumotlarni saqlash samaradorligi va ishonchliligini oshirishi mumkin. Bulutli saqlash sizga masofaviy serverlarda ma'lumotlarni saqlash va zaxiralash imkonini beradi, bu esa uni yo'qotish yoki shikastlanishdan himoya qiladi. Bu, ayniqsa, katta hajmdagi ma'lumotlar, jumladan, o'quv materiallari, tadqiqotlar, o'quv dasturlari va boshqalar saqlanadigan ta'lim muassasalari uchun foydalidir.

Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida ta'lim faoliyatini zamonaviy tashkil etishda bulutli texnologiyalardan foydalanish talabalar, o'qituvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasida o'qitish va hamkorlikning qulayligi, samaradorligi va ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

OTMLarda o'quv kurslarini zamonaviy tashkil etishda bulutli texnologiyalardan foydalanish ko'plab afzalliklarga ega. Mana ulardan ba'zilari:

1. Moslashuvchanlik va miqyoslilik: Bulut texnologiyalari o'quvchilar va o'qituvchilar ehtiyojlarini qondirish uchun o'quv tizimlarini masshtablashni osonlashtiradi. O'quv materialiga istalgan joydan va istalgan vaqtda osongina kirish mumkin, bu esa o'rganishni talabalar uchun yanada moslashuvchan va qulay qiladi.

2. Hamkorlik va ma'lumot almashish: Bulut platformalari talabalar va o'qituvchilarga faol hamkorlik qilish va materiallarni almashish imkonini beradi. Bu hamkorlikda o'rganishga yordam beradi va kurs ishtirokchilari o'rtasidagi aloqani yaxshilaydi.

3. Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Bulut texnologiyasi tufayli talabalar o'zlarining shaxsiy ehtiyojlari va bilim darajasidan kelib chiqqan holda moslashtirilgan ta'lim olishlari mumkin. Ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari o'quv materiallari va topshiriqlarini talabalarning ishlash darajasiga mos ravishda moslashtirishga imkon beradi.

4. Ma'lumotlar xavfsizligi va yaxlitligi: Bulutli tizimlar ta'lim ma'lumotlarini saqlash va almashish uchun yuqori darajadagi xavfsizlikni taklif qiladi. Muammolar yuzaga kelsa, ma'lumotlar zaxiralanishi va tiklanishi mumkin.

5. Xarajatlarni kamaytirish va apparat xarajatlari: Bulutli platformalardan foydalanish apparat va infratuzilma xarajatlarini kamaytiradi, chunki ma'lumotlar va ilovalar uzoq serverlarda saqlanadi va qayta ishlanadi. Bu, ayniqsa, byudjeti cheklangan universitetlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

6. CRM tizimlari bilan integratsiya: Ba'zi bulutli ta'lim platformalari mijozlarni boshqarish tizimlari (CRM) bilan integratsiyani taklif qiladi, bu universitetlarga kurslarni, talabalar ma'lumotlarini va ular bilan aloqani samarali boshqarish va boshqarish imkonini beradi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, bulutli texnologiyalardan foydalanish ma'lumotlar xavfsizligi, beqaror internet ulanishlari va bulutli xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga qaramlik kabi o'ziga xos qiyinchiliklar va xavflarga ham ega. Shu sababli, xavfni to'liq baholashni o'tkazish va universitetning o'ziga xos talablaridan kelib chiqqan holda mos platformani tanlash muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. **Ananchenko I. V. Oblachnyye texnologii v vysshem obrazovanii // Sovremennyye naukoymkiye texnologii. – 2015. – № 5. – S. 48–52.**

2. **Aleksanyan G. A. Pedagogicheskiye usloviya ispolzovaniya oblachnykh texnologiy v obuchenii matematike studentov SPO [Elektronnyy resurs] // Sovremennyye problemy nauki i obrazovaniya. – 2014. – № 1. – Rejim dostupa: [www.scienceeducation.ru/115-11860](http://www.scienceeducation.ru/115-11860).**



3. Yemelyanova O. A. **Primeneniye oblačnykh texnologiy v obrazovanii // Molodoy**

**uchenyy. – 2014. – № 3. – S. 907–909.**

4. Ergashevich, E. A. (2023). USE OF SOCIAL NETWORKS AS NEW EDUCATIONAL TECHNOLOGIES. *International Journal of Pedagogics*, 3(12), 210-213.

5. Ergashevich, E. A. (2023). O 'QUV JARAYONIGA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI: YANGI IMKONIYATLAR VA AFZALLIKLAR. *Journal of marketing, business and management*, 2(8), 10-14.

6. Ergashevich, E. A., & Malikov, M. (2023). Blokcheyn Texnologiyalarining Qo 'Llanilishi: Kriptoalyutalar Va Bitkoin. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 1(4), 180-186.

7. Эрназаров, А., Джураев, Н., Абборов, Ж., & ДЖиянова, З. (2023). ELEKTRON HUKUMAT TIZIMIDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLANILISHI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(27), 48-51.

8. Эрназаров, А., Джураев, Н., Абборов, Ж., & Ахмадова, З. (2023). ЭЛЕКТРОН ХУКУМАТ ТИЗИМИДА КОНФИДЕНЦИАЛ АХБОРОТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Наука и технология в современном мире*, 2(23), 26-30.

9. Ergashevich, E. A., & Xabiba, K. (2023, December). TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISHLARIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (Vol. 1, pp. 148-151).

10. Ergashevich, E. A., & Jamshed O'g'li, I. Q. (2023). Turizm Sohasida Geoaxborot Tizimlarining Qo 'Llanilishi. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 1(4), 200-202.

11. Ergashevich, E. A. (2023). INTERNET TO'LOV TIZIMLARI VA ULARNING TURLARI. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(12), 56-59.

## **VITAMIN D TANQISLIGI: RAXIT, KELIB CHIQISHI, PROFILAKTIKA VA DAVOLASH**

**Akramov Abdulloh Ahmad o'g'li**

SamDTU Pediatriya fakuteti 3-kurs talabasi

[abdullohakramov313@gmail.com](mailto:abdullohakramov313@gmail.com)

**Tosharova Munisa Abdisattor qizi**

SamDTU Pediatriya fakuteti 3-kurs talabasi

[t.munisa1668@gmail.com](mailto:t.munisa1668@gmail.com)

**Mardiyeva Jasmina Sayfullo qizi**

SamDTU Pediatriya fakuteti 3-kurs talabasi

**Do'smurodova Xosiyatxon Murod qizi**

SamDTU Pediatriya fakuteti 3-kurs talabasi

[dusmurodovaxosiyatxon@gmail.com](mailto:dusmurodovaxosiyatxon@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bu maqola raxit kasalligi haqida tafsilotli ma'lumotlar taqdim etadi. Maqolaning birinchi qismida raxit kasalligining asosiy sababi sifatida Ca va P almashinuvidagi buzilish va vitamin D tanqisligi yotishi tushuntiriladi. Keyinchalik, raxit kasalligining uchrash darajasi, bu kasallikning tarqalganlik va uning rivojlanishi haqida tafsilotlar berilgan. Maqolaning uchinchi qismida, raxit kasalligining klinikasi va uning sabablarini tushuntirish uchun vitamin D ning organizmdagi rolini o'rganish, kalsiytriolning vazifalari bilan bog'liq tafsilotlar keltirilgan. Maqolaning oxirgi qismida raxit kasalligini davolash va uni profilaktika qilish uchun qo'llaniladigan yo'nalishlar to'liq bayon qilingan. Bu qismda, raxitni davolash uchun nospetsifik va spetsifik davolash yo'llari, jumladan vitamin D va Ca preparatlari, va homiladorlik davrida va bolalikda optimal ovqatlanishning muhimligi haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqola tibbiyot sohasidagi mutahassislar va o'quvchi talabalar uchun kerakli ma'lumotlar berishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Raxit, Vitamin D, Kalsiy, Fosfor, Defitsit, Xolekasiyferol, Kalsiytriol, Quyosh nuri, Vegetativ buzilishlar, Deformatsiyalar,

**Kirish:** Raxit – bu erta yoshdagi bolalarda Ca va P almashinuvining buzilishi bilan kechuvchi kasallik sanaladi. Raxit kasalligida Ca va P almashinuvida ishtirok etuvchi biologik faol moddalarning irsiy yoki orttirilgan yetishmovchiligi bilan tavsiflanadi. Bunday

faol moddalardan eng muhimi vitamin D(xolekalsiyferol)dir. Shuningdek, gormonlar kalsitonin va paratgormon ham ushbu almashinuvni boshqarishda ishtirok etadi. Raxit kasalligi hamroh kasalliklar guruhiga kiritilib, uning rivojlanishi ancha murakkabdir. Umuman olganda bolalar organizmi hayotining birinchi yarmida juda kata tezlik bilan o'sadi. Bunga esa bolalar organizmida moddalar almashinuvining juda intensiv ko'rsatkichlari orqali erishiladi. Bunday yuqori intensivlik moddalar almashinuvi uchun kerakli bo'lgan moddalarni ayniqsa, o'sish uchun zarur bo'gan oqsillar, aminokislotalar, vitaminlar va mikroelementlarni talab etadi. Jumladan suyaklar o'sishida qatnashuvchi vitamin D, Ca va P kabi makroelementlarni ham. Ushbu moddalarning irsiy yoki ortirilgan yetishmovchiligi organizmda raxit kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Biz hozir vitamin D tanqisligi natijasida kelib chiquvchi raxitni ko'rib chiqamiz. Raxit aynan ushbu turi keng tarqalgan hisoblanadi va uning asosida vitamin Dning alimentar yetishmovchiligi yoki quyosh nuridan to'yinmaslik yotadi.

**Asosiy qism:** Keling raxit kasalligi haqida ma'lumotlarni ma'lum yo'nalishlarda tartibga solamiz. Birinchi yo'nalishimiz raxit kasalligi tarqalganlik va uchrash darajasi. Raxit kasalligining uchrashi mintaqalarning iqlimi bilan bog'liq. Shimoliy mintaqalarda ayniqsa kuz va qish fasllarida quyosh nuri taqchilligi sabab bu kasallik rivojlanish ehtimoli ortadi. Quyosh nuri yetarli bo'lgan mamlakatlarda esa bolalarni turli matolar bilan o'rash, quyoshdan himoyalovchi kremlardan foydalanish vitamin D tanqisligiga olib kelishi mumkin. Raxit kasalligi 1-3 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi. 3 yoshdan katta bolardagi vitamin D tanqisligi raxit kasalligi hisoblanmaydi. Uchrash foiziga keladigan bo'lsak tibbiyot muassalariga murojaat qilgan bemor bolalarning Rossiyada 66% gacha, Fransiyada 39% gacha, Turkiyada 4% gacha bo'lgan qismida raxit kasalligi aniqlangan. Ikkinchi yo'nalish raxitni keltirib chiqaruvchi omillar bo'lib, bunda asosiy uchta omilni sanab o'tish kerak. Birinchi faktor quyosh nuri yetishmovchiligi sanaladi. Ma'lumki, quyoshning ultrabinafsha nurlari ta'sirida terining bazal qavatida 7-digidroxolesterin asosida vitamin D(xolekalsiyferol) sintezlanadi. Vitamin D terida quyosh nurlarining 280-310 nm to'lqin uzunligi ya'ni optimal ultrabinafsha nurlar diapozonida yaxshi sintezlanadi. Bu holat asosan quyosh chiqishi va botishida kuzatiladi. Shuningdek teri pigmentatsiyasi ham ahamiyatga ega. Teri giperpigmentatsiyasining yuqori bo'lishi ham terining vitamin D sintezini kamaytiradi. Ikkinchi faktor bu ovqatlanishdir. Organizm vitamin D ni faqat quyosh nuri ta'sirida emas balki alimentar holatda ham o'zlashtiradi. Shuningdek, alimentar yo'l bilan Ca



va P ham o'zlashtiriladi. Bolalar uchun optimal bo'lgan ozuqa bu ona sutidir. Ona sutida Ca va P kerakli nisbatda va yetarli miqdorda mavjud. Shuningdek ona suti optimal vitaminlar tarkibiga ega. Ammo bolalarni ovqatlantirish ba'zan sun'iy ovqatlantirishni talab etishi mumkin. Sun'iy oziqlantirishda moslashtirilmagan aralashmalarni qo'llash bola organizmida Ca, P va vitamin D defitsitiga sabab bo'ladi. Chunki moslashtirilmagan aralashmalar vitamin Dga to'yinmagan va Ca va P nisbati bola uchun optimal bo'lmaydi. Shuningdek bolaga qo'shimcha ovqatlantirishni vaqtida qo'shmaslik ham vitamin D tanqisligiga sabab bo'lishi mumkin. Uchinchi asosiy faktor bu perinatal omillar. Bu omillar bolaning vaqtidan erta tug'ilishi bilan bog'liq. Chunki vaqtidan erta tug'ilgan chaqaloq Ca va P zaxirasiga ega bo'lmaydi va ehtiyoji juda katta bo'ladi. Qo'shimcha omillarga esa malabsorbsiya sindromi, jigar va buyrak xastaliklari, ayrim dori vositalari, kamharkatlilik kabilarni sanab o'tishimiz mumkin.

Uchinchi yo'nalishimiz raxit klinikasi sanaladi. Raxit patogenezini tushinish uchun vitamin D ning organizmdagi rolini bilish muhimdir. Vitamin D organizmda terining bazal qavatida va ichaklarning yuqori bo'limlarida sintezlanib, qonda oqsillar bilan bo'g'lanib jigarga boradi va oksidlanib kalsiydiolni hosil qiladi. Kalsiydiol nishon hujayralarga ta'sir qilmaydi, ammo kalsiydiolning qondagi konsentratsiyasi organizmdagi vitamin D tanqisligini tashxislashda aniqlanadi. Kalsiydiol buyrakning proksimal kanalchalarida kalsiytriolga aylanadi. Kalsiytriol esa nishon organlarga ta'sir etuvchi vitamin D ning faol shakli sanaladi. Kalsiytriol osteoblastlar ishini rag'batlantiradi, kalsiy va fosforning suyaklarga fiksatsiya qilinishini ta'minlaydi. Shuningdek, kalsiy va fosfor reabsorbsiyasini oshirib qonning kislotasi muvozanatini boshqarishda ishtirok etadi. Kalsiytriol immunitetga ham ta'sir qiladi, ya'ni inteleykin, interferonlar sintezini stimulyatsiya qiladi. Kalsiytriol mushaklarda Ca o'tkazuvchanligini oshirib, mushaklar qisqarishini kuchaytiradi. Yana bir eng muhim vazifalardan biri bu Ca va P ning ichaklarda so'rilishini ta'minlaydi. Vitamin D ning yetishmasligi organizmda Ca va P so'rilishini buzilishiga olib keladi. Natijada organizmda metionin gipersekretsiyalanadi. Metionin esa suyaklardagi Ca ni qonga chiqaradi, P ni esa reabsorbsiyasini kamaytiradi. Natijada organizmda vegetativ buzilishlar, suyaklar malyatsiyasi, giperplaziyasi, gipoplaziyasi, mushaklarda gipotonusi kelib chiqadi. Og'ir holatlarda esa oshqozon ichak kasalliklari, pnevmoniya, churralar kelib chiqishi mumkin. Raxit davriga ko'ra boshlanish, gullash, tuzalish va qoldiq asoratlar kabi davrlarni o'z ichiga oladi. Raxit kechishiga ko'ra yengil, o'rta og'ir va o'ta og'ir holatlari mavjud.

Raxitning boshlanish davri yoki yengil holatida bolada vegetativ buzilishlar ya'ni uchib tushish, uyqusining va ishtahasining buzilishi, ko'p terlash va terdan ammiak hidi kelishi, dastlab motorikaning kuvhayishi keyin esa kamharakatlilik kabi o'zgarishlar kuzatiladi. Rahitning gullash davri o'rta og'ir yoki o'ta og'ir kechishi mumkin. O'rta o'g'ir darajada o'zgarishlar asosan suyak va mushak sistemasida kuzatiladi. Bularaga ostemalyatsiya sindromi, osteoid giperplaziya, osteoid gipoplaziya va mushaklar gipotonusi kiradi. O'g'ir holatlarda esa ichki organlarda ham o'zgarishlar kelib chiqadi. Raxitning tuzalish davrida barcha vegetativ buzilishlar yo'qoladi va mushaklar tonusi tiklanadi. Ammo qoldiq asoratlar sifatida skelet tizimidagi o'zgarishlar qoladi. Bularga raxitik bilakuzuk, raxitik marjonlar, marvarid iplari, "O" simon va "X" simon deformatsiyalar, kvadrat bosh, gorisson egati kabilarni keltirishimiz mumkin. To'rtinchi yo'nalishimiz raxitni davolash va profilaktikasi sanaladi. Raxitni davolash va profilaktika qilish kompleks holda ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchi yo'li nospetsifik yo'l hisoblanib quyidagilarni o'z ichiga oladi. Bolani ochiq havoda sayr qildirish, bolaning ovqatlanishini optimallashtirish, homiladorlik davrida va bolazi emizikli ayollarning to'g'ri va yetarli ovqatlanishi va sog'lom turmush tarziga rioya qilishi. Bundan tashqari ayrim dori vositalarini ehtiyot bo'lib qo'llash, bularga talvasaga qarshi va siydik haydovchi dorilar kiradi. Spetsifik davo bu vitamin D preparatlari va Ca preparatlarini qo'llashdir. Profilaktik davolash uchun vitamin D preparatlarini 500 XB(xalqaro birlik)dan sutkasiga berish tavsiya etiladi. Bu amaliyot homiladorlikning 32 haftasidan, hamda bolalikning 3 haftaligidan boshlab qo'llash kerak. Chala tug'ilgan chaqaloqlar uchun esa 10-14 kunlikdan berib borish mumkin. Davolash miqdori esa kasallik og'irlik darajasiga qarab belgilanadi. Yengil darajada sutkalik miqdor 2000 XBdan, o'rta og'ir darajada 3500 XBdan, o'ta og'ir darajada esa 5000 XBdan oshirmaslik tavsiya etiladi. Davolash muddati 50-60 kungacha bo'lishi kerak. Vitamin D prepartalariga turli savdo nomlari ostida chiquvchi ergokalsiyferolning suvli, yog'li, spirtli eritmaları, drajelari, Vigantol, Videxol kabilarni qo'llash mumkin. Ca preparlarining sutkalik miqdori 1000 mgdan oshirmaslik tavsiya etiladi. Ca preparlariga turli savdo nomlari ostida chiquvchi kalsiykarbonat, kalsiysitrat, klasiyfosfat, kalsiylaktat, kalsiyglukonat kabilar kirib, turli miqdorda kalsiy tutadi. Bundan tashqari profilaktik va davo choralari turli boshqa vitamin preparatlari qo'llash tavsiya etiladi.

**Xulosa:** Shuni ta'kidash joizki, vitamin D tanqisligi natijasida kelib chiquvchi raxit kasalligi 1-3 yoshgacha bo'lgan bolalarda anchagina keng tarqalgan. Chunki bolalar

organizmi juda yuqori o'sish intensivligini namoyish etadi. Bu esa ularda vitamin D, Ca va P yetishmasligini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun raxit profilaktikasi ayniqsa, shimol mamlakatlarida qat'iy belgilanadi. Raxit asosiy kasallik sanalmaydi va ko'p hollarda yengil darajada o'tib ketishi mumkin. Ammo raxitning o'rta og'ir va o'ta og'ir darajalari bolalar organizmida o'zgarmas asoratlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa ko'krak qafasi skeleti deformatsiyalari(etikdo'z ko'krak qafasi, garrison egati, tovuqsimon ko'krak qafasi) ichki organlar jumladan o'pka ventilyatsiyasini buzishi mumkin. Shuningdek liqildoqlarning bitmasligi, kvadrat bosh simptomlari miya rivojlanishiga ta'sir etishi mumkin. Umuman olganda raxit va D vitamin defitsiti bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishdan qolishiga hamda ularda turli suyak deformatsiyalari, qad-qomatning buzilishi, nafas va oshqozon-ichak kasalliklariga moyillik kabi asoratlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli raxit profilaktikasiga amal qilish ona va bolaning sog'lomligi ta'minlovchi chora sanaladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Monarch Disease Ontology release 2018-06-29sonu — 2018-06-29 — 2018.
- 2.Р. Е. Бермана, В. К. Вогана. Педиатрия. Руководство. Общие вопросы: развитие, питание, уход за ребёнком/Пер.с англ. — 2-е, переработанное и дополненное. — Москва: Медицина, 1991. — ISBN 5-225-00537-3.
- 3.Rickets: Not a Disease of the Past - American Family Physician. Дата обращения: 17 марта 2015. Архивировано 9 апреля 2012 года.
- 4.Алексеев М. Т. Рахит // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
- 5.Святкина К. А., Хвуть А. М., Рассолова М. А. Рахит / Под ред. проф. П. А. Пономаревой. — М.: Медицина, 1964. — 224 с. — 14 000 экз.
- 6.Шабалов Н. П. Детские болезни: Учебник. 5-е изд. В двух томах. — СПб.: Питер, 2005. — Т. 1. С. 224—248. ISBN 5-272-00320-9
- 7.Майданник В. Г. Педиатрия: Учебник для студентов высших медицинских учебных заведений III—IV уровней аккредитации. 3-е изд. — Х.: Фолио, 2006. — С. 6—7. ISBN 966-03-3460-5



## MILITARY ART OF AMIR TEMUR

**Eshboyev Dono Uzoq o`g`li**

Termiz State University Faculty of History student.

**Abstract:** This article describes the military campaigns and tactics of our great grandfather Amir Temur during his lifetime. In addition, we will consider the new military units created by Amir Temur and their tasks.

Significant contribution of Amir Timur and his descendants, especially Babur, to the development of world western art. This was rightfully recognized by experts and generals. Considered a great commander and an innovative military organizer, Sahibqiron managed to create a disciplined army, to manage the units of the army wisely during the battle, to quickly send the western forces to the places where the fate of the battle would be decided, to eliminate the existing obstacles and pitfalls with entrepreneurship, and to keep the fighting spirit in the army at a high level. Amir Temur and the army of the Timurids gathered soldiers from the settled population engaged in farming, handicrafts and farming, as well as cattle herders. Along with the chief soldiers who formed the basis of the military forces, the infantry also served in the army. Sahibqiran was one of the first in the East to introduce a fire-ball (ra'd) to the army. During the Timurid period, other types of this weapon (zarbzhan, farangi, pot, etc.) became widespread. Special military units and divisions have been established to conduct combat operations in the mountainous regions. Amir Temur was the first in the history of world military work to introduce the order of deploying the army on the battlefield into 7 arms, as opposed to the traditional 5 arms. This news was later adopted by generals such as Tokhtamysh and Shaibani Khan. According to Ibn Arabshah, there were units of women in Sahibqiran's army, who stood in the same ranks as men and showed examples of heroism and fortitude.

Timurid's army was clearly organized in terms of numbers, its battle order was improved, it was equipped with the advanced weapons and equipment of its time, the units were distinguished from each other by uniforms, flags and flags. Such a distinction came in handy in commanding an army in battle. Defeat the enemy's defense in various ways, attack the opponent's big cities, lay siege to fortresses, fortresses and fortresses for a long time,

encircle the enemy's forces as widely as possible, conquer villages, cities, districts, regions one after another, destroy the enemy completely. Such practices as pursuing until maturity, appointing trusted people to lead the surrendered countries brought many victories to Amir Temur and the Timurids. Tactically, Amir Temur's army had its own characteristics. Reconnaissance is well organized, the necessary measures and measures are developed for the units to act as required on the battlefield or in the battle line, with special attention being paid to their rapid management during the battle. The Supreme Commander-in-Chief was responsible for the selection of ten, hundred, thousand and district commanders. Another great contribution of Sahibqiran to the development of military art was the introduction of the qunbul, a cavalry unit formed in order to protect the army's flanks from the enemy's attack during the battle and, in turn, bypass the enemy's forces from the side and attack them from behind. Such a new military unit did not exist in the army of such famous generals as Alexander, Hannibal, Genghis Khan, Louis XIV, Frederick the Great. It was also present in Shaibani Khan's army and it was called by the term tolyuma. After the announcement of a special order (tunqol) about the gathering of troops, according to the list compiled by the ruler, the warriors arrived at the gathering place with their horses, weapons, food, and fodder. Each soldier was given one bow, 30 arrows, one bow, one shield, one extra horse, rope, , leather bag, and one cauldron. Every 10 warriors were required to carry one tent, two shovels, one scythe, one saw, one ax, one ax and 100 coins. All 5 of Sarah's warriors are housed in one tent. The eleventh had a separate tent and 5 additional horses. Yuzbegi was also given a separate tent and 10 additional horses. In addition to the tent, Mingbegi is also equipped with an umbrella. 313 beks headed various divisions and units of the Sahibqiran army. The first 100 of them held the positions of tens, the second 100, and the third 100 thousand. Divisions - districts were headed by Amir Temur's children, grandsons and famous army chiefs. After a sufficient number of troops were gathered, it was inspected. During the Timurid era, it became a regular practice to inspect the army before a campaign or a battle and determine its fighting spirit and condition. ovgarta (hunting), which is recognized as a way of examining the combat condition of the bird, was effectively used.

**Kurbanova Raxima Abdullayevna**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Parataktik qurilmalarning propozitiv strukturasi sodda gapning propozitiv strukturasi bilan ham, gipotaktik qurilmalarning propozitiv strukturasi bilan ham farq qiladi. Bu mazkur sintaktik qurilmaning derivatsion xususiyatlarini qayd etish jarayonida ham ma'lum darajada ko'zga tashlandi. Propozitiv struktura sintaktik qurilma mundarijasining real borliq bilan bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, sodda gaplar munosabatidagi avtosemantik munosabat va bundan farqlanuvchi parataktik qurilmalardagi o'ziga xos sintaktik munosabatning sinsemantik xarakteri ham bundan dalolat beradi.

**Kalit so'zlar:** gap, jumla, propozitsiya, prisuppozitsiya, so'z, til, nutq, til va nutq birliklari, tema-rema, struktur, semantik va pragmatik faktorlar.

## О МОНО ПРЕДСТАВИТЕЛЬНОЙ СТРУКТУРЕ ПАРАТАКТИЧЕСКИХ УСТРОЙСТВ

**Курбанова Рахима Абдуллаевна**

Преподаватель кафедры языков Самаркандского государственного медицинского университета

**Аннотация.** В большинстве случаев, размышляя о языковых знаках, имеются в виду существующие представления о единстве формы и содержания в них, иными словами, об экспрессивных и экспрессивных сторонах. С этой точки зрения получили распространение рассмотрение предложения как языкового знака и тем более случаи нахождения, разделения формы и содержания экспрессивных и экспрессивных компонентов и выражения мнения о них.

Точно так же, как единицы, выступающие как языковые единицы, но обладающие иными, чем номинативно-денотативными, коммуникативно-значимыми



свойствами, фиксируются как предикативные единицы, об их пропозициональной структуре высказываются специфические мнения. По этому признаку было отмечено предложение как самая минимальная из речевых производных конструкций и высказаны важные взгляды, связанные с определением его структурных, семантических и прагматических особенностей.

**Ключевые слова:** предложение, предложение, суждение, пресуппозиция, слово, язык, речь, языковые и речевые единицы, тема-рема, структурные, семантические и прагматические факторы.

### REGARDING THE MONOPROPOSITIVE STRUCTURE OF PARATACTIC DEVICES

**Kurbanova Rakhima Abdullayevna**

Teacher of the Department Languages of Samarkand State Medical University

**Abstract.** In most cases, when thinking about linguistic signs, the existing views about the unity of form and content in them, in other words, about expressive and expressive aspects are meant. From this point of view, looking at the sentence as a linguistic sign, and even more so, the cases of finding, separating the form and content, expressive and expressive components and expressing an opinion about them have become widespread.

In the same way that the units that appear as linguistic units, but have communicative-significant properties other than nominative-denotative properties, are recorded as predicative units, specific opinions are expressed about their propositional structure. According to this basis, the sentence was noted as the most minimal of the speech derivative constructions, and important views related to the definition of its structural, semantic and pragmatic features were put forward.

**Key words:** clause, sentence, proposition, presupposition, word, language, speech, language and speech units, theme-rhema, structural, semantic and pragmatic factors.

Bugungi kunda tilshunoslar tomonidan gapning til birligi sifatida qaralishi masalasi biroz kamaygan bo'lishiga qaramay, hamon uni tilning birligi sifatida talqin qilish ma'lum darajada saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganida, gapning nominativ aspekti mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Shu bois ham, uning propositiv xususiyati haqida mavjud

fikrlarni, qarashlarni o'rganish tilshunoslikning bugungi masalalarini hal etish va ertangi tadqiqotlar rejalarini belgilab olish uchun zaruratdir. Gapning til birligi sifatidagi asosiy belgisi bu uning nominativ jihati bo'lib, uni propozitiv strukturasi bilan uzviylikda tavsiflash mumkin bo'ladi. Gapni nutq birligi sifatida qarash esa, uning kommunikativ va obyektiv modallik belgilari bilan tavsiflanadi. Shuni ham aytish joizki, modallikning subyektiv turi ham gapning nutq birligi sifatidagi tavsifida muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, inson jismoniy, aqliy va ruhiy uchlikni o'zida yuksak darajada mujassam etgan mavjudot sifatida tabiat va jamiyatda faollik ko'rsatish qobiliyatiga egaligi bilan yagonadir. Uning aql – ong orqali amalga oshirishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari boshqa tirik mavjudotda kuzatilmaydi. Inson borliqni to'g'ridan to'g'ri anglashi bilan bir qatorda, uni sezgilar orqali qabul qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mavjud mohiyatni maqsadli aks ettirishdan iboratdir. Ong tegishli tartibda borliqdagi ma'lumotlarni sezgilar orqali qabul qiladi. Ko'p davrlarda ong – aql insonni boshqa mavjudotlardan farqlanishini ta'minlashi va uning jamiyatni tashkil etishining asosi sifatida qaraldi. Biroq bugungi kunga kelib, shuni ham e'tirof etishga to'g'ri kelmoqdaki, inson nafaqat ongi bilan, balki ruhi bilan ham boshqa tiriklik belgilari mavjud bo'lganlardan farqlanadi. Ongning tarbiyasi va kamoloti bilimga asoslanadi. Bilim esa, ezgulikka ham, yovuzlikka ham birdek xizmat qilishi, yo'l ochishi mumkin. Endi ularni qay biri yaxshi va qay biri yomon ekanini farqlash inson ruhiyati, ruhiy tarbiyasi va ruhiy kamolotiga bog'liqdir. Ruhiyat esa qalb tarbiyasi, axloq-odob normalari bilan belgilanadi. Bu insoniyatga berilgan eng buyuk in'omdir. Ongning paydo bo'lishi bevosita nutqning vujudga kelishi bilan bog'liq hisoblanadi. Nutq – nutqiy faoliyat mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, har qanday nutqiy faoliyatning vujudga kelishi sezgilarga asoslanuvchi hissiy bilishdan boshlanib, ong orqali boshqarilar, shakllantirilgan ekan, uning tub mohiyati insonning ruhiyati bilan uzviylikda, izchillikda amalga oshadi. Tilni fikrning bevosita voqe bo'lishi maydoni sifatida tavsiflanishiga kelsak, uning asosiy, markaziy va maksimal birligi so'z ekanini inkor eta olmaymiz. Shunday ekan, so'z borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarning inson ongidagi tushunchasining nomi ekanini tasdiqlash to'g'ri bo'ladi. Inson faqat so'zning o'zi bilan fikrini ifodalash ehtiyojini qondira olmaydi. Buning uchun unga so'zlardan nutqiy faoliyatda to'g'ri va maqsadli foydalanish vazifasi qo'yiladi. Ana shu vazifaning bajarilishi propozitsiyani belgilash, uni amalga oshirish va pirovard kommunikativ ehtiyojni qondirish, bunda modal munosabatlarni aks ettirish imkonini beradi.

Ko'rinadiki, har qanday nutqiy derivat bu jihatdan kommunikativ – hosila strukturani tashkil etadi. Bu soʻz – gap, toʻliqsiz gap, sodda gap va uning har qanday turi, murakkab gap va uning har qanday turi, parataktik yoki gipotaktik qurilma va ularning istalgan turi shaklida boʻlishi mumkin. Bu nuqtai nazardan ular monopropozitiv xarakter kasb etadi.

Misol: *Arava gʻijirlab borar, aravakash bir zumga boʻlsada xirgoyisini toʻxtatmas edi (Choʻlpon. Kecha va kunduz).*

Keltirilgan misolda operandlar oʻzaro parataktik munosabatdadir. Bu operandlarning har biri alohida-alohida xabar ifodasini avtonom holatda berayotgani yoʻq. Agar shunday boʻlganida edi, sintaktik qurilma quyidagicha shakllangan boʻlishi mumkin edi: *Arava gʻijirlab borardi. Aravakash bir zumga boʻlsada xirgoyisini toʻxtatmas edi.*

Bu oʻrinda sintaktik qurilmalar sinsemantik munosabatda emas, balki avtosemantik xarakterlidir. Bunda keltirilgan gaplarning bir-birini izohlayotgani, toʻldirayotganini qayd etib boʻlmaydi, balki ifodalangan voqea yoki hodisalarni alohida-alohida ekanini kuzatish mumkin. Agar sintaktik qurilma operandlari sifatida shakllangan qismlar parataktik munosabatda boʻlsa, u holda qurilma komponentlararo shakllangan munosabat sinsemantik xarakterli boʻladi. Muhimi, har ikki holatda ham mavjud ikki sodda gapning har biri alohida monopropozitivlikka ega hisoblanadi va shu bilan birga, alohida operand sifatida shakllangan ikki komponent evaziga vujudga kelgan parataktik qurilma ham monopropozitiv xarakterda boʻladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qurbonova M., Sayfullaeva R., Boqieva G., Mengliev B. Oʻzbek tilining struktural sintaksisi. Oʻquv koʻllanmasi. – Toshkent. 2004. (–B. 52) -142 b. (Kurbanova M., Sayfullaeva R., Bokieva G., Mengliev B. Uzbek tilining struktural sintaksisi. Ukuv kullanmasi. – Toshkent. 2004. (–B. 52) -142 b.)

2. Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). - Toshkent: «Oʻqituvchi» 1995, (- B.5-6) 195 b. 9 Mahmudov N., Nurmonov A. Uzbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). - Toshkent: «Ukituvchi» 1995, (- B.5-6) 195 b.)

3. Moskalʼskaya O.I. Problemy sistemnogo opisaniya sintaksisa. –M., 1974, –S. 9-19; 2-e izdanie. –M., 1981, –S. 9-18; (Moskalskaya O.I. Problemi sistemnogo opisaniya sintaksisa. –M., 1974, –S. 9-19; 2-e izdanie. –M., 1981, –S. 9-18)

4. Nurmonov A., Mahmudov N., Axmedov A., Solixoʻjaeva S. Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. Oʻz FA «Fan» nashriyoti, 1992, -B.28 (Nurmonov A., Mahmudov N.,



Axmedov A., Solixujaeva S. Uzbek tilining mazmuniy sintaksisi. Uz FA «Fan» nashriyoti, 1992, -B.28)

5. Paducheva, Ye. V. Semanticheskie issledovaniya: semantika vremeni i vida v russkom yazyke; semantika narrativa / Ye. V. Paducheva. – Moskva: Shkola «Yazyki russkoy kultury», 1996. –465 s. (Paducheva, E. V. Semanticheskie issledovaniya: semantika vremeni i vida v russkom yazyke; semantika narrativa / E. V. Paducheva. – Moskva: Shkola «Yazyki russkoy kulturi», 1996. –465 s.)

6. Prokopovich N.N. Voprosy sintaksisa russkogo yazyka.–M.: Vysshaya shkola, 1974, 350 s. (Prokopovich N.N. Voprosi sintaksisa russkogo yazyka.–M.: Vysshaya shkola, 1974, 350 s.)

7. Abdullaevna, K. R. (2022, August). General interpretation of the predicity event: Kurbonova Rakhima Abdullaevna, Samarkand State Medical Institute, Department of Languages, Trainee teacher, e-mail: kurbonovarahimal@ gmail. com. In *Научно-практическая конференция*.

8. Abdullaevna, K. R. trainee teacher, department of languages medicine and education faculty, Samarkand State Medical Institute. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 125.

9. Abdullaevna, K. R. (2022). SOME CONSIDERATIONS ABOUT PREDICATIVENESS AND ITS EXPRESSION. *Thematics Journal of Education*, 7(5).

10. Abdullaevna, K. R. (2022). Propositive Structure And Syntactic Devices Of Speech Derivation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 764-766.

11. Курбонова, Р. А. (2022). Предикативлик ва унинг ифодаси хусусида айрим мулоҳазалар. *Science and Education*, 3(11), 1376-1379.

12. Abdullaevna, K. R. GENERAL INTERPRETATION OF THE PREDICITY EVENT. In *Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 103. Цель конференции–знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных* (p. 274).

13. Abdullaevna, K. R. (2023). SENTENCE AND ITS SYNTACTIC STRUCTURE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 266-268.

## **KITOB MA'RIFAT CHIROG'I**

**To'lanova Mohinur**

Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: Fransuz tili yo'nalishi 1-bosqich 123-guruh talabasi

*“ Kitob seni hali sen ko'rmagan dunyoga olib boradi, sen eshitmagan so'zlar aytadi”.*

**Gertsen**

Kitob insoning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbai, fikrlar quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai hisoblanadi. Kitob moziy darakchisi bugunning tarbiyachisi va muallimi, kelajakning yo'l boshchisi. U ma'naviy xazina, haqiqiy boylik. Dono xalqimiz kitobni shunday deydi: “Kitob ko'rmagan kalla-giyoh unmagani dala”. Bu hikmatli so'zda shunday ma'no borki, giyoh o'smagan dalani hech kimga foydasi yo'q, unda hech kim manfaat topmagani kabi kitob ko'rmagan kalla ham shu kabi hech kimga foydasi tegmaydi, o'z fikrini namoyon qila olmaydi. Shuning uchun ko'p kitob mutolaa qilib tafakkurimizni o'stirishimiz zarur.

Ajdodlarimiz hayotida ham kitob muhim rol o'ynagan. Ular kitobni o'z do'stlariday ko'rishgan. Jumladan Alisher Navoiy shunday degan: “Kitob- beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmadlarning bilim xazinasi bilan oshna eta oladi”. Kitobni biz azaldan boylikdan ustun qilib kelganmiz. Buyuk rus olimi Aleksandir Pushkin ham doimo kitobni do'st tutgan. Pushkin vafot etar chog'ida, unga “do'stlaringiz bilan vidolashing” deb aytgan. Pushkin xonaning burchagidagi kitob javoniga termulib, “ Xayr, mening do'stlarim!” deya jon bergan. Biz ham kitobni do'st tutmog'imiz lozim, zero barcha bilimlarning manbai kitob.

*Kitobim, barchadan boyim o'zingsan,*

*Tunimni yoritar Oyim o'zingsan.*

*Badanim ilmga tashnalab tursa,*

*Sug'orib turuvchi soyim o'zingsan.*

### **Muxibbiy**

Siz oilangiz borligini payqab qolasiz. So'z ota-onangiz yoki qarindoshlaringiz haqida ketmayapti. Siz kitobga mehr qo'yib, yangi kitobsevarlar oilasiga qo'shilasiz. Bu oilaga qo'shilishingiz bilan atrofingizda doim sizni qo'llab-quvvatlaydigan va har qanday

vaziyatda yordam qo'lini cho'zadigon odamlar paydo bo'ladi. Bu kitob o'quvchilar va kitob sevuvchilar oilasidir.

Siz cheksiz muloqot olamiga kirasiz. Inson kitob yordamida o'tmishdagi avlodlari hayotini o'rganishi va unda yashashi mumkin. O'qish sizga turli xalqlar madaniyati va turli toifa odamlar hayotini so'zlab beradi. Ma'naviy dunyo qarashingiz kengayadi. Kitob insonlarning o'zaro bir-birlarini tushunishiga yordam beradi. Siz esa o'zga bir insonning hayotiga kirib borasiz. O'ylab ko'ring, boshqa bir insonning o'rnida bo'lishni istarmidingiz? Hayotda yangi tajribalarga erishishnichi? Bu siz o'ylaganingizchalik qiyin ish emas. Shunchaki kitob o'qish kerak.

*Kitob bu inson orqali ko'riladigon dunyodir.*

### **I.E.Bobel**

Ko'plab yangi narsalar haqida bilib olasiz. Qaysi janrdagi kitoblarni o'qishingizdan qat'iy nazar juda ko'p narsalarni bilib olasiz. Bu tarix, psixologiya, madaniyat, ruhiyat, urush-oqibatlar, insonlarning bir-biri bilan munosabatlari va hayotida zarur bo'ladigan turli xil ma'lumotlar bo'lishi mumkun.

*Kitob bu- hayot, undagi jarayonlar- tarix jarayonlaridir.*

### **Xulosa**

Sizda ijodiy fikrlar paydo bo'la boshlaydi. Miyyangizni yangi ilimlar bilan boyita boshlaganingizdan so'ng, ajoyib bir holat sodir bo'la boshlaydi. Fantaziyangiz uyg'onadi. Ijod bu aslida insonlar hayratlangan ilhomning amaldagi ko'rinishidir, hayotda bunday insonlar ko'plab topiladi. Bu insonlar she'riyatni ilm bilan, e'tiqodni tarix bilan aralashtirishdan qo'rqishmaydi. Siz o'zingiz to'plagan bilim manbaalaringizdan foydalana boshlaysiz. Shunda sizda turli fantaziyalar paydo bo'ladi.

Har qanday ma'naviyatli, ma'rifatli insonning sevimli mashg'uloti kitob o'qish, zero kitob – ma'rifat o'chog'i.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" "Ma'naviyat" Toshkent 2010.
2. Shavkat Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" "O'zbekiston" Toshkent 2017



3. Shavkat Mirziyoyevning «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarori.

4. <https://www.biznesrivoj.uz/articles/kitob-o-qishga-odatlanishga-5>

5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/kitob-uqishning-foydalari>

## KITOB – INSON FITRATI

Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (Fransuz tili) 1-bosqich talabasi

**Mirzobadalova Xadicha Baxtiyor qizi**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada buyuk sharq allomalarining fikrlari, qarashlari, shuningdek ular qoldirgan buyuk ma'naviy merosning qadr-qimmati va bugungi hayotimizdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga kitoblarning bizning hayotimizdagi o'rni, uning jamiyatga ta'siri, yoshlarni ma'nan yetuk va barkamol, yuqori tafakkurga ega qilib tarbiylashdagi o'rni, inson onggiga bo'lgan psixologik va tibbiy foydalari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Bilim, tafakkur, psixologiya, jamiyat, tibbiyot, bilimdonlik, kitobxonlar.

**Abstract.** This article examines the thoughts and views of the great scholars of the East, as well as the value and importance of the great spiritual heritage they left behind in our lives today. At the same time, the role of books in our life, its impact on society, its role in educating young people to be intellectually mature and well-rounded, and their psychological and medical benefits for the human mind will be discussed.

**Key words:** Knowledge, thinking, psychology, society, medicine, erudition, bibliophile.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются мысли и взгляды великих ученых Востока, а также ценность и важность того великого духовного наследия, которое они оставили после себя в нашей сегодняшней жизни. В то же время будет обсуждаться роль книг в нашей жизни, ее влияние на общество, ее роль в воспитании молодых людей интеллектуально зрелыми и всесторонне развитыми, а также их психологическая и медицинская польза для человеческого разума.

**Ключевые слова:** Знание, мышление, психология, общество, медицина, ерудиция, читатели.

Bugun bitta kitob o'qigan bola, ertaga televizor ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqarishi mumkin. (Shavkat Mirziyoyev)

Kitoblar uzoq yillardan beri ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan hikmat kemasi hisoblanadi. Bu kemadan hikmat olgan kishi albatta komillikka erishadi, foydalanmagan inson esa zalolatga yuz tutadi. Sharq mutafakkirlaridan mashhur Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy kabi faylasuv va ilm donishmandlarining durdona asarlari va ilmiy tadqiqotlari butun jahon miqyosida munosib o'rin tutadi. Ayniqsa Markaziy Osiyoda islom dini kirib kelganidan so'ng bir nechta olim va fuzalolarning amalga oshirgan tadqiqotlari va ilmiy ishlarini butun jahon tan oldi. Bulardan Al-Xorazmiyning "hisob aljabr val Muqobala", Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari, Ahmad al-Farg'oniyning asrtronomiya fani rivojiga qo'shgan hissasi, Abu Nasr Forobiyning falsafa sohasiga oid bilimlar majmui, shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning minerologiya va astronomiya sohasiga doir yozilgan asarlari eng olamshumul kashfiyotlar va nodir namunalar desak mubolag'a bo'lmaydi. O'rta Osiyo xalqining boy merosidan chet davlatlarda fan sifatida foydalanilishi ham bejizga emas. Bu ma'naviy boylikni kelgusi avlodlarga ham yetqazish va xalqni bilimli va ma'nan yetuk qilib tarbiyalash endilikda biz yoshlarning zimmamizdadir. Ma'naviyatning asosi bo'lmish kitoblarni mutolaa qilish, undan axloqiy va ma'naviy tarbiya olish, shu bilan birgalikda uni boshqalar bilan baham ko'rish jamiyat hayotida eng muhim shiorga aylandi.

Bugungi kunda yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish uchun qator tashabbuskor rejalar tanlovlar amalga oshirilmoqda. Xususan yurtimizda keng auditoriyada o'tqazilib kelinayotgan "Mening birinchi kitobim", "Eng yaxshi kitobxon", "Kitobxon oila", "Yosh kitobxon", "Kitobxon yoshlar" kabi bir nechta tanlovlar respublikadagi barcha yoshlarni bir maqsadga birlashtirgan. Bu kabi ommaviy tadbirlarni tashkil qilishdan maqsad yoshlar orasida sog'lom fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirish, ularni ko'proq bilim va malaka oshirishiga jalb qilishdan iboratdir. Bundan tashqari kitob o'qishning biz bilgan va bilmagan foydali tomonlari benihoya ko'pdir. Olimlarning ta'kidlashicha bizga ma'lum bo'lib qolgan Alsgeymer (xotira pasayishi) kasalligining ham kelib chiqish sabablari kitob o'qimaslik, tafakkur qilmaslik bilan bog'liq. Negaki inson yoshligidan toki keksayguniga qadar doimiy ravishda kitob o'qisa, undagi ma'lumotlar asosida fikr yuritsa, tafakkur qilsa, aqli qariganida ham o'z tiniqligini saqlab qoladi. Lekin afsuski hozirgi kunda aholi o'rtasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqish, kitobxonlik kamaygan va bu turli kasalliklar va yomon holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.



Kitobning soʻz boyligini oshirishda, ravon gapirishda, begonalar bilan erkin muloqot qilishda, stressni kamaytirishda, xotira va fikrlashni oʻstirishda foydasi katta. Kitob oʻqishga odatlangan kishi quyidagi imkoniyalarga ega boʻladi

1. Kitob oʻqish inson umrini 2 yilga uzaytiradi. Yel Universiteti Sogʻliqni Saqlash maktabi hodimlari tadqiqot xulosalarini “Science & Social Medicine” jurnalida eʼlon qildilar. Unga koʻra koʻp kitob oʻqish miya hujayralari orasidagi aloqani mustahkamlaydi va bu holat erta oʻlimga olib keladigan “neyrodejenerativ” kasalliklar xavfini kamaytiradi.

2. Oʻqish stressni kamaytiradi. Olimlar va shifokorlar stress barcha inson kasalliklarining 60% xavf omili deb hisoblashadi. Birinchidan, stress qon-tomir xavfini (50% ga) va boshqa yurak-qon tomir kasalliklarini (40% ga) oshiradi. Buyuk Britaniyaning Sasseks Universiteti tomonidan 2009 yilda oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga koʻra, kitob oʻqish stressni 68% gacha kamaytirishi mumkin. Bu musiqa tinglash va sayr qilishdanda koʻproq samarali hisoblanadi.

3. Oʻqish uyqusizlikni davolaydi. Kun davomida smartfonlar va zamonaviy texnika uskunlari atrofida va ayniqsa uyquga yotishdan avval doimiy ekran qarshisida boʻlishimiz organizmga salbiy taʼsir koʻrsatib uyqusizlikka sabab boʻladi. Bunda gadjetlardan chiqadigan sunʼiy yorugʻlik miyada melatonin (uyqu garmoni)ning ishlab chiqarilishini kamaytiradi. Mayo Klinikasiga koʻra, kitob oʻqish uyquni yaxshilaydi va uyqusizlikni kamaytiradi. Ayniqsa terminlar va bizga nomaʼlum atamalardan iborat boʻlgan kitoblarni mutolaa qilish tezroq uyquni keltirib chiqaradi.

Yana buyuk olimlar faylasuflar shuni aytib oʻtganlarki, kuniga kamida 1 soat davomida kitob oʻqish butun dunyodagi 99% odamdan yaxshiroq boʻlishga sabab boʻladi. Chunki koʻpchilik odamlar kitob oʻqimaydilar.

Xulosa qiladigan boʻlsak, aholi oʻrtasida kitobxonlikning kamayishi, kitoblar oʻqish surʼati pasayib ketishi - oʻtmishini, ota-bobolarini unutishga, fikr yuritmaslikka, gadjetlarga qaram boʻlib qolishga va bir nechta yomon kasalliklar kelib chiqishiga olib keladi. Bu holat faqatgina Oʻzbekistonda emas, butun dunyoda sodir boʻlmoqda. Ushbu salbiy vaziyatni oldini olish uchun bir qator tashabbuskor va manfaatli loyihalar amalga oshirilmoqda. Hattoki kitob oʻqish orqali pul mukofoti va boshqa koʻplab sovrinlarga erishilmoqda. Bizga berilayotgan bu imkoniyatlardan toʻgʻri foydalanish ham sogʻligimizga eʼtibor qaratishimiz ham oʻz qoʻlimizda, zero insonning tabiati hayoti, turmush tarzi bevosita kitoblar bilan chambarchas bogʻliq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" "Ma'naviyat" Toshkent 2010.
2. Shavkat Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz" "O'zbekiston" Toshkent 2017
3. Shavkat Mirziyoyevning «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarori.
4. <https://www.biznesrivoj.uz/articles/kitob-o-qishga-odatlanishga-5>
5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/kitob-uqishning-foydalari>
6. Muratovna, Davlyatova Emina. "KITOB TAFAKKUR VA MA'NAVIYAT XAZINASI." O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2.16 (2023): 619-622.
7. Farmanova, B. X., and M. D. Abdugaffarova. "KITOB BILIM BULOG 'I." Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 2.2 (2023): 47-49.
8. <http://www.fayllar.org/tamin-etgan-tarixiy-shart-sharoitlar.html?page=2>

**Ta'lim integratsiyaning hozirgi zamon muammolari**

Qo'qon universiteti

**Xusanovan Madinabonu Muzaffarjon qizi**

Boshlang'ich ta'lim 3-kurs

**Annotatsiya**

Ushbu hozirgi zamonda bo'layotgan integratsiyalanish ya'ni bita darsni ikta o'qituvchi yokida ikta fanni bitta qilib o'tish foydalari haqida bo'layotgan yangiliklar va ular yordamida samarali dars jarayonli bo'lishi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, ta'lim tizimi, fanlar, ta'lim rejasi, chet el maktablari.

Boshlang'ich maktab ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas. Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar lashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida hat etilgan. Bunda so'z faqal sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda.

Hozirgi kunda juda ham ko'p muhoka bolayotgan narsalardan biri bu boshlang'ich maktablarni integratsiyasidir. Bu tushunarli, kichik maktab o'quvchisi atrofdagi olam darsligini har doimgida o'tlar hayvonlar ularning hayoti qanday kechii nimalar bo'lishi to'g'risida o'rganishadi. Osha bilan birgalikda biz atrofimizdagi olamda ranglar, rus tili, hayvonlarnin qanaqa ovoz chiqarishlari ya'ni musiqa, va boshqa fanlarni ham uyg'unlashtirsak bo'ladi. Shunday ekan, ta'lim integratsiyasi hozirgi zmon talabi hisoblanadi, albatta. Boshlang'ich ta'lim integratsiyasining mohiyati nima? degan savol hosil bo'ladi.

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq tabaqalashtirish va induviduallashtirish bilan birgalikma tengma teng muhokama qilina boshlandi. Agarda yuqori sinflar bilan boshlang'ich sinflarni kitoblari darslari bir xil bo'lganda boshqacha bo'lgan bo'lardi degan fikr borligi sabablidir. Kichik maktab yoshidagi bolalar qiziqishlari faol



shakllantiril borilsa, integratsiyaning asosiy qilib turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni kengaytirish va aniqlashtirish lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam ta'limda integratsiyaning kirib kelishida aniq bir maqsad boshlang'ich sinfdayoq tabiat va jamiyat tushunchalarini yaxshi tassavur qilishi, bilishi va ularga mos o'ylashlari munosabatini shakllantiradi. Mana shuning uchun ham integratsiya kerakdir, bolaning har tomonlama ideal bo'lib o'sishiga ham kata yordam ko'rsatadi. Bola mantiqan va emotsional taraflama ha o'zini shakllantishi lozim talab qilinadi.

Ta'limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? Ta'limga bog'liq «Integratsiya» tushunchasi 2 ta ma'noga ega:

1. O'quvchida atrofdagi olam to'g'risida yaxshi tasavvur hosil qilish
2. Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari biribiriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi kerak.

Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarini qabul qilish vositasi. Integratsion darslar kichik yoshdagi bolalarning tasavvuri oshishiga hamda ularning tafakkur olami oshishiga ham juda katta yordam beradi. Ushbu darslarni aziz pedagog va o'qituvchilar otishni u dars turini bolalarga o'ta olishni taqdim qila olishni bilsa bas. Integratsion darslar juda xam qiziq bo'ladi. Negaki u fanlarda aynan bitta fan emas balki ikta uchta fanlarda oladigan bilimlarini olishadi. Shuning uchun ham ta'lim integratsiya juda ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abduraxmonova Sh.A. "O'zaroalmashuvchanlik, standartlashtirish, texnik o'lchovlar" fanining elektron majmuasi dasturi O'zbekiston respublikasi adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi №DGU 09073 07.09.2020 y.

2. Abduraxmonova Sh.A. "Materialshunoslik va konstruktsio materiallar texnologiyasi" mobil ilovasi O'zbekiston respublikasi adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi № DGU 1741107.07.2022 y.

**Internet manbalari**

1. <https://metallurgist.pronovye-tehnologii-koksovaniya-ugley>
2. <https://weldering.com/polozhenie-mundshtuka-gorelki>
3. <https://svarkaed.ru/rashodnye-materialy/flyus-i-svarochnayaprovoloka/kakuyu-rol-igraet-flyus-v-domennom-protse.html>
4. [https://www.highexpert.ru/content/engineers/toolerance\\_features.html](https://www.highexpert.ru/content/engineers/toolerance_features.html)

**SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI**

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (Fransuz tili)

1-bosqich talabasi

**Zopirova Sitora Odiljon qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kundagi ta'limga bo'lgan e'tibor, sifatli ta'lim berish va ta'lim tizimini yanada isloh qilishga doir amalga oshirilayotgan chora tadbirlar va islohotlar tahlil qilinadi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется современное внимание к образованию, качественному образованию, а также меры и реформы, реализуемые для дальнейшего реформирования системы образования.

**Abstract:** This article analyzes the attention paid to education, the quality of education, as well as the measures and reforms implemented to further reform the education system.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, taraqqiyot, tafakkur, islohot, samaradorlik, vatanparlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" deya ta'kidladi.

Shubhasiz, ta'lim sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi mavjud. Shu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z Murojaatnomasida ta'limni "Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya" deb ta'kidlagani chuqur strategik ahamiyatga ega.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ekspertlari tomonidan o'tkazilgan lingvistik kontent-tahlil natijalariga ko'ra, Prezident nutqining asosiy qismi ta'lim-tarbiya sohasini yanada rivojlantirishga bag'ishlandi. Xususan, "ta'lim" va "maktab" so'zlari eng ko'p qo'llangan so'zlar qatoridan joy oldi (25 va 23 marta mos ravishda)[3].

Hozirgi globallashuv dunyosida texnologiyalar rivojlanib borar ekan, sifatli ta'limni isloh qilish, shuningdek, o'z ishining mutaxassisi bo'lgan faol yoshlarning



sonini oshirish, olingan bilim va tajribalar asosida yanada yangi texnika-texnologiyalarni kashf etish muhim masalaga aylandi. Xususan, yurtimizda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, tashabbuskor loyihalar va bilimli yoshlar uchun yaratib berilayotgan qator imkoniyatlar yoshlarga sifatli ta'lim beribgina qolmay ularga kelajakda bir nechta imkoniyatlar eshigini ochishi shubhasiz. So'nggi bir necha yilda amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilsak, ta'lim sohasida tub burilishlar sodir bo'lmoqda desak yanglishmagan bo'lamiz. 2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili deya nomlanishi ham bu sohadagi yangiliklarning bir isbotidir. Amalga oshirilgan va kelajakda bajarilishi belgilangan islohotlarda raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2023 yilda 70 ta yangi maktab qurilishi, 460 ta maktab kengaytirilishi ma'lum qilindi. Shu bilan birga, kelgusi yilda xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlanishi, yaqin besh yilda esa ularning soni 1 mingtaga yetkazish rejalashtirilayotgani qayd etildi. Bundan tashqari mavjud 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar imkoniyatidan samarali foydalanish zarurligi ko'rsatildi. Shuningdek, 2023 yildan boshlab yangi dastur asosida har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etilishi, kelgusi besh yilda esa barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinishi belgilandi. Ayni vaqtda, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni kengaytirish maqsadida kimyo sanoati, elektr texnikasi, transport va energetika sohaslarida alohida "Muhandislik maktablari" tashkil qilinishi va bu orqali yangi zamon injenerlari tayyorlash tizimini yaratish vazifasi qo'yilgani diqqatga sazovor.[3] Yana shularni keltirib o'tishimiz kerakki, Prezident maktablarida 130 ta mamlakatda ma'qullangan "A-level" ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgani va bu dastur o'z samarasini bermoqda. Xususan ilm olishga istagi va salohiyati yetarli bo'lgan, ammo moliyaviy imkoniyatlari biroz cheklangan oliygoh talabarlari uchun kelgusi yilda imtiyozli ta'lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko'paytirilib, 1,7 trillion so'm hamda ilm-fan va innovatsiyalarga 1,8 trillion so'm ajratilishi talabalar va yosh olimlar uchun quvonarli yangilik bo'ldi. Bu mablag'lar kelajakda, albatta, o'z samarasini berishiga, ya'ni o'z sohasining yetuk olimlari yetishib chiqishiga, oliy ta'limni tamomlagan kadrlar sifatining ortishiga xizmat qiladi. Oliy ta'limning sifati albatta, iqtisodiy samaradorlikni belgilaydi.[4] Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oliygohlar soni 2,5 barobarga (ularning umumiy soni 198 taga yetdi), qamrov darajasi esa 4 barobordan ziyodga ortgani ta'kidlandi (9 foizdan 38 foizga). Ayni vaqtda, oliygohlar o'z jozibadorligini

oshirish uchun o'zlari harakat qilishlari, jumladan, rektorlar, professor- o'qituvchilar bu jarayonlarda faol bo'lishlari, zamonaviy, ilg'or o'qitish uslublarini joriy qilishlari lozimligiga urg'u berildi.[5]

Termiz davlat universitetida ham ta'lim sifatini oshirishga yoshlarni ilm olishga qiziqtirishga, ularni ona vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, kelajakda faol va iqtidorli bitiruvchilarni yetishtirishga muhim e'tibor qaratilayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Yaqin kunlarda bo'lib o'tgan Surxondaryo telekanalining "Inson fitrati" ko'rsatuvida universtitet rektori Abduqodir Toshqulov mehmon sifatida tavsiya etildilar va suhbat da'vomida sifatli ta'limni yana keng tadbiiq qilish, ma'naviyat-ma'rifat, vatanparvarlik tushunchalarini yoshlar onggiga singdirish, ma'naviyat sektorining tashkil etilganligi, kelajak avlodni ruhan va ma'n'an tetik qilib tarbiyalash va shu kabi bir nechta muhim mavzularda qimmatli fikrlarini berib o'tdilar[6]

Shu boisdan quyidagi e'tiborga loyiq iqtiboslarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq:

- Ma'naviyat bu eng birinchi masala
- Ta'limda ishlaydigan odam ma'naviyatchidir
- Ma'rifat susaygan joyda jaholat kuchayadi (Sh. Mirziyoyev)
- Har bir yoshning yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishida oiladagi ta'lim tarbiya, kasb va mehnat, sport, adabiyot-san'at muhim o'rin tutadi.
- Kitob o'qishning eng muhimligi

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlar zamonaviy tendensiyalarga mos holda rivojlanib bormoqda. Bu borada sifatli ta'lim mamlakatning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda[3]. Yoshlarga bu imkoniyatlar eshigina ochib berishdan birdan bir maqsad ko'zda tutilgan. Bu ham bo'lsa ularning sifatli ta'lim olishi sport sohasida, kasb hunarda o'z bilim va tajribalariga ega bo'lishi, shuningdek, kelajakda yurt rivojiga hissa qo'shib yuqori marralarni zabt etishi va O'zbekistonni burun dunyo miqyosida yanada tanitishidir. Zero, Mamlakat kelajagi yoshlar qo'lida.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Shavkat. M “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz” , “O‘zbekiston” Toshkent 2017.
2. Erkin Umarov; Mahmud Abdullayev “Ma’naviyat asoslari” “Sharq” Toshkent 2005.
3. <https://kknews.uz/oz/126463.html>
4. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/olii-talim/Ta-limga-e-tibor-kelajakka-poydevor.htm>
5. [https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-nechta-olii-talim-muassasasi-faoliyat-yuritadi\\_567669](https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-nechta-olii-talim-muassasasi-faoliyat-yuritadi_567669)
6. <https://youtu.be/hEy2QqkTIDU?si=-zstZbU8WvRj0xs>
7. <https://parliament.gov.uz/articles/1350>
8. <https://lex.uz/docs/-4208152#-4211312>
9. [https://scholar.google.com/scholar?q=related:BJeGeOmGgdwJ:scholar.google.com/&hl=ru&as\\_sdt=0,5](https://scholar.google.com/scholar?q=related:BJeGeOmGgdwJ:scholar.google.com/&hl=ru&as_sdt=0,5)



**JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT (MUAMMOLAR VA YECHIMLAR)**

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (Fransuz tili)

1-bosqich talabasi

**To'xtasinova Laylo Abdukarim qizi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashda olib borilayotgan chora-tadbirlar, ma'naviyatning bugungi O'zbekistonimizdagi ahamiyati, shuningdek, yoshlarni ilm va madaniyat yo'lida birlashtirish, sog'lom va ma'naviy muhitni yaratishda olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Taraqqiyot, ma'naviyat, tarbiya, ma'rifat, loqaydlik, virtual olam.

**Abstract.** This article analyzes the measures taken in the fight against ignorance with enlightenment, the importance of spirituality in today's Uzbekistan, as well as the reforms carried out to unite young people in the path of science and culture, and to create a healthy and spiritual environment.

**Key words:** Development, spirituality, education, enlightenment, indifference, virtual world.

**Аннотация.** В данной статье анализируются меры, принимаемые в борьбе с невежеством с просвещением, значение духовности в современном Узбекистане, а также реформы, проводимые для объединения молодежи на пути науки и культуры, создания здоровой и духовной среды.

**Ключевые слова:** Развитие, духовность, образование, просвещение, безразличие, виртуальный мир,

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. (Islom Karimov) [1]

Ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarini yoshlarga uqtirish hozirgi kunimizning eng muhim shioriga aylandi, xususan bu borada amalga oshirilayotgan barcha

o'zgarishlar va islohotlar yoshlarning jaholat, razillik va yomon illatlar ko'chasiga kirib ketishning oldini olishga qaratilgan. Bu borada Termiz davlat universiteti rektori Abduqodir Toshqulov ham o'z intervyularida ma'naviyatning hamisha eng birinchi masala ekanligini qayta va qayta ta'kidlab o'tdilar. Ma'naviyat va marifatni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish uchun muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev topshiriqlariga asosan viloyatlarda bir nechta sohadaga doir islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan Surxondaryo viloyatida 5-sektor - Ma'naviyat sektorining tashkil qilinishi bu boradagi katta o'zgarishlarning eng ko'zga ko'rinadigan isbotidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Aynan ma'rifatli, mustaqil fikrlaydigan va yuqori tafakkur qilish qobiliyatiga ega ma'nau va jismonan yetuk yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosiga aylandi, negaki hozirgi kunda nafaqat yoshlarda balki umuman olganda butun jamiyatda yomon illatlar ko'zga ko'rinmoqda. Asosan, odamlar o'rtasida mehr-oqibatsizlik, loqaydlik, befarqlik, dangasalik va shikoyatchilik holatlari kuchayib bormoqda. Abduqodir Toshqulov ta'kidlaganlaridek har joyda, har vaziyatda nimadir susaysa, nimadir kuchayadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ma'naviyat susaygan joyda jaholat kuchayadi deya ta'kidlagan edilar. Bundan ko'rish mumkinki, aholi o'rtasidagi ushbu yomon illatlarning tarqalib borishi ma'naviyatsizlikka, o'z o'tmishini milliyligini, ota-bobolari xotirasini unutib, g'arb mamlakatlariga taqlid qilish, ularning xulq atvorini o'zida singdirish oqibatda qadimgi turon zamin O'zbekistonning milliy qadriyatlarini, o'zligi va barcha urf odatlari yo'qolib ketishiga olib keladi. Buning oldini olish uchun e'tibor qaratiladigan eng muhim obyekt oila hisoblanadi, subyekti esa ota-onadir.

Xalqimizda yillar o'tsa ham o'z qadrini yo'qotmay isbotini topib kelayotgan bir jumla bor "Ma'naviyat oiladan boshlanadi. Uning eng birinchi bo'g'ini oiladir. Oila instituti bu muqaddas institut" [2]

Farzandlarni oilada qanday tarbiya topganligi uni kelajakda qanday inson bo'lib yetishganida ko'rinadi. Ya'ni har bir bola go'yoki bir kuzgu U ota-onasining, oilasining aksini ko'rsatadi, bejizga dono xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" demagan. Jaholatga qarshi ma'naviyali bilim tafakkurga ega farzand tarbiyalash uchun eng muhim va yagona yechim bu - bola tug'ilganidan oilada ilm tarbiya olishidir. Dono xalqimiz farzand ona qornidalik vaqtidayoq dastlabki ta'lim tarbiyani ola boshlaydi deganlar. Farzandning kamol topishida eng muhim hisoblanadigan to'rt jihat mavjud bular:

1. Bolaning oilada tarbiya va ta'lim olishiga ota-onaning muhim e'tibor qaratishi.

2. Bolani mehnat va hunarga o'rgatish unda sabr va matonat tuyg'ularini shakllantirish

3. Sport va o'yinlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, bolani harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalash

4. Adabiyot va san'atga qiziqtirish milliy qadriyatlarni va ota bobolari siymosini onggiga singdirish.[2]

Pedagogik jihatdan ham dastlabki ta'lim tarbiya oilada olinishi, eng birinchi o'qituvchi va pedagog ona ekanligi ilmiy asoslangan. Farzand tarbiyasida ona eng muhim rol o'ynaydi. Uning har bir xatti-xarakati farzandiga ta'sir qiladi. Dastlabki aytilgan ona allasidayoq bolada ma'naviyat shakllana boshlaydi. Chunki ona maktabdir, ona madrasadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir o'g'il-qizni bamisoli dehqon yosh niholni o'stirganidek har doim e'tibor berib parvarishlash, kelajakda ularning ulkan daraxt bo'lishida va jamiyatga foydasi tegishida muhim hisoblanadi. Ota-onalarning o'z qaro ko'zlariga to'g'ri ta'lim tarbiya berishlari ikki hissa foydalidir, bunda birinchi foyda o'zlariga bo'lsa ikkinchi foyda esa jamiyatga, xalqqa bo'lgan foydadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" "Ma'naviyat" Toshkent 2010 4-6b,
2. Shavkat Mirziyoyev. M "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz" "O'zbekiston" Toshkent 2017.
3. M. Gularam Kamilovna; X. Tamara Jo'rayevna. "Ma'naviyatshunoslik" "Fan ziyosi" Toshkent 2022
4. <https://youtu.be/hEy2QqkTIDU?si=-zstZbU8WvRj0xs>



**YUKSAK MA'NAVIYATLI YOSHLAR – JAMIYAT TAYANCHI**

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (Fransuz tili)

1-bosqich talabasi

**Bo'riqulova Sug'diyona Samadovna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan islohotlar va yosh avlodga ma'naviyat, marifat tushunchalarini singdirish uchun amalga oshirilgan tashabbuskor g'oyalar va jamiyatdagi yoshlar ongida sofdillik, vatanparvarlik, bag'rikenglik, dovyuraklik, halollik, mehr-muruvvat tuyg'ularini shakllantirish maqsadida qilinayotgan chora-tadbirlar haqidagi bilim va manbalar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Mafkuraviy immunitet, ma'rifatchilar, bag'rikenglik, ma'naviy boylik, tafakkur, tashabbuskorlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются реформы, направленные на формирование идеологического иммунитета, а также инициативные идеи, реализуемые по привитию понятий духовности и просвещения молодому поколению. Анализируются знания и источники мер, принимаемых для формирования в сознании молодежи в обществе чувств честности, патриотизма, толерантности, щедрости, честности, доброты.

**Ключевые слова:** Идеологический иммунитет, просветители, толерантность, духовное богатство, мышление, инициатива.

**Abstract.** This article discusses reforms aimed at creating ideological immunity, as well as proactive ideas being implemented to instill the concepts of spirituality and enlightenment in the younger generation. The knowledge and sources of measures taken to form in the minds of young people in society feelings of honesty, patriotism, tolerance, generosity, honesty, and kindness are analyzed.

**Key words:** Ideological immunity, educators, tolerance, spiritual wealth, thinking, initiative.

Ma'naviyat — insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. (Islom Karimov)

Jamiyatning va unda yashaydigan insonlarning xulq-atvori, ma'naviyati, e'tiqodi va eng muhimi iymoni uning eng beqiyos va bebaho boyligidir. Har qanday sohada inson chiroyli odab-axloqi, o'ziga xos madaniyati bilan boshqalardan farq qiladi. Hozirgi zamonaviy texnika asrida ming afsuslar bo'lsinkim yoshlar orasida yaxshi fazilatlarining kamayishi va loqaydlik, axloqsizlik, bag'ritoshlik, dangasalik, bilimsizlik kabi yomon fe'l atvorning ko'payishi ko'plab salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Natijada, o'z tarixini, milliy madaniy merosini, ajdodlar siymosini tanimaydigan, ular haqida izlanmaydigan kitobdan yiroqda bo'lgan jamiyat a'zolari ko'paymoqda. Agarda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek jamiyatdagi eng nozik qatlamidan ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarini shakllantirish boshlansa butun jamiyat o'zgarishiga erishiladi Zero millat ravnaqi, kelajagi yoshlar qo'lida.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat. (Shavkat Mirziyoyev)

Yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual, ijodiy va kasbiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga dahldorligini oshirish borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakat kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladigan barkamol, maqsadga intiluvchan, ziyrak va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biriga aylangani barchamizga ma'lum.

Italiyalik rassom, haykaltarosh olim Leonardo da Vinchi jadallashib borayotgan zamon haqida so'z yuritar ekan: “Agar temir ishlatilmasa, zanglaydi. Agar suv harakatlanib turmasa, ayniydi. Agar kishi fikrlamasa, aqlda ham shunday holat yuz beradi”, deya ta'kidlagan edi. Haqiqatan, shamoldanda tez o'tayotgan soniyalar bizdan juda katta faollik va shijoatni, maqsadga erishishning eng oson va yaqin yo'lini tanlashni talab qilmoqda. Bizning eng katta va muhim vazifamiz - yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega, shijoatli, shuningdek fidoiy va vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdir.

Ma'naviyat har doim ma'rifat bilan, ya'ni bilim bilan uyg'un holda shakllanib, rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg'unligiga erisha olsak, yoshlarimizning ma'naviy barkamol, iymon-e'tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli,

halol va pok insonlar bo'lib tarbiyalanishlariga erisha olamiz. Bu haqda Abu Hamid Muhammad G'azzoliy quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan edi edilar: Gumroh kishilar "Ilm bo'lgach, amalga hojat yo'q" deya fikr yuritadilar. Bunday fikrlar ilmning o'zi bilan kifoyalanib, shariatni inkor etuvchilarning e'tiqodi bo'lib, ular uchun ilm hosil bo'lsayu, amal bo'lmasa. Bu kabi ilmdan foyda yo'qligini bilishmaydi. Buni tushuntirish va yoshlar ongiga ikki ilmni singdirish butun jamiyat zimmasidadir

Ma'naviyatni rivojlantirish mamlakatimiz va millatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ayniqsa asosiy vazifa darajasiga ko'tarilgan hech kimga sir emas. Bu faqat mamlakatimizning ichki hayoti bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki uning barqaror rivojlanishga tahdid solishga urinayotgan turli tashqi oqimlarning mavjudligi bilan ham bog'liqdir. Ularning ayniqsa hayot tajribasiga ega bo'lmagan, tafakkuri qilish qobiliyati yetarli bo'lmagan yoshlarimizning ongini zaharlash borasida olib borayotgan harakatlariga qarshi tura oladigan, erkin fikrlaydigan, fidoiy Vatanparvarlarni tarbiyalash ma'naviyatni yuksak darajada rivojlantirishini taqozo qilmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoyev yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o'rgatish, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligini alohida ta'kidladi va qator ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyat – insoning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, yurtimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish yo'lida barchamiz birdek mas'ul bo'lishimiz lozim. Bu yo'lda eng asosiy vazifa kelajak yoshlariga ajdodlarining shonli o'tmishi, beqiyos tarixini, shariat ilmini o'rgatish va undan xulosa olishiga ma'naviy fikr yuritishga yordam berishdan iborat.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" "Ma'naviyat" Toshkent 2010 19b,
2. Shavkat Mirziyoyev. M "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz" "O'zbekiston" Toshkent 2017.
3. M. Gularam Kamilovna; X. Tamara Jo'rayevna. "Ma'naviyatshunoslik" "Fan ziyosi" Toshkent 2022 19-23-79-91-betlar
4. Хусенов, Мурод, and Лобар Шарипова. "YUKSAK MANAVIYATLI YOSHLAR JAMIYATNING TAYANCHIDIR: YUKSAK MANAVIYATLI YOSHLAR JAMIYATNING TAYANCHIDIR." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).
5. <https://yuz.uz/uz/news/manaviyatli-yoshlar-vatan-tayanchi>
6. <https://yuz.uz/uz/news/yoshlar--taraqqiyot-tayanchi>
7. <https://youtu.be/hEy2QqkTIDU?si=-zstZbU8WvRj0xs>

ЕНГИЛ САНОАТ КОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ  
БОШҚАРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Казимова Мижгона Шарифовна, ММЗ-ИҚ-22 guruhi magistri*

**Аннотация:** Мақолада енгил саноат корхоналари рақобат устунлигини таъминлаш омиллари, рақобатбардошликни бошқариш тизими, бошқариш жараёни бўйича маълумотлар берилган. Шунингдек, енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш тизимини ишлаб чиқиш бўйича таклифлар ва хулосалар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Рақобатбардошлик, рақобатбардошликни бошқариш, корхоналар ривожланиш стратегияси, интеграциялашган ёндашув, комплекс ёндашув, рақобатбардошликни бошқариш тизими, рақобатбардошликни таъминлаш.

**Abstract:** The article provides information on the factors of competitive advantage of light industry enterprises, the competitiveness management system and the control process. Also, there are proposals and conclusions on the development of light industry enterprises' competitiveness management system.

**Keywords:** Competitiveness, competitiveness management, business development strategy, integrated approach, complex approach, competitiveness management system, competitiveness supplement.

Жаҳон иқтисодиёти ривожланишининг ҳозирги босқичида ривожланаётган мамлакатлар енгил саноат корхоналарида халқаро стандартларга мос равишда юқори сифатли маҳсулот ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва рақобатбардошлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу эса ўз навбатида мамлакатлар ўртасида кучли рақобат муҳитини шаклланишига, маҳсулотларнинг сифати ва нархи бўйича мамлакатлар бир-биридан ўзишга интилишларига сабаб бўляпти.

Мамлакатимиздаги енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини таъминлаш мақсадида юртбошимиз томонидан кўплаб фармон ва қарорлар қабул қилинмоқда, хорижий мамлакатлар тажрибаларидан оқилона фойдаланган ҳолда кластер тизими тадбиқ этилмоқда, тармоқ ривожини таъминлаш мақсадида йўл хариталари ишлаб чиқилиб босқичма-босқич ижроси таъминланмоқда.

Шу билан бирга, Республика тўқимачилик саноатининг жадал ривожланишини таъминлаш, юқори сифатли ва рақобатбардош тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш, уни йирик хорижий бозорларга янада илгари суриш, шунингдек, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифаларни изчил амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан 2017 йил 14 декабрьдаги ПФ-5285-сонли “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони имзоланган. Фармонда, тўқимачилик саноатининг иқтисодиётдаги улушини ошириш, мамлакатда ишлаб чиқарилаётган тўқимачилик маҳсулотларининг, энг аввало, юқори кўшилган қийматли рақобатбардош тўқимачилик маҳсулотларини юқори технологик ишлаб чиқаришга қайта йўналтириш орқали ҳажми ва сифатини ошириш, тўқимачилик саноатининг бошқарув тизимини илғор менежмент технологиялари, тармоқ корхоналарига ҳар томонлама кўмаклашиш ва кўллаб-қувватлашнинг, шу жумладан уларнинг ривожланишига тўсқинлик қилувчи муаммоларни ҳал этишда самарали шакллари жорий этган ҳолда тубдан қайта кўриб чиқиш каби амалга оширилиши зарур бўлган вазифалар белгиланган.

Ўзбекистон Республикасида олиб борилаётган ислохотлар натижасида энгил саноат тармоғида корхоналар сонининг ортиши кучли рақобат муҳитини вужудга келишига сабаб бўлмоқда. Бундай вазиятда корхоналарнинг олдида турган асосий вазифа рақобатбардошликни таъминлаш, бозордан сиқиб чиқарилиш хавфини турли йўллар билан олдини олиш ҳисобланади. Рақобатбардошликни таъминлаш ҳар қандай корхонани бошқаришнинг асосий мақсадларидан биридир. Рақобатбардошликнинг энг муҳим хусусиятларидан бири бу унга таъсир ўтказиш ва уни бошқара олиш имкониятга эга бўлиш ҳисобланади.

Энгил саноат тармоғини ривожланишига қаратилган барча чора-тадбирлар корхоналарнинг иқтисодий самарадорлигини ошишига, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришга хизмат қилмоқда. Энгил саноат корхоналарининг рақобатбардошлик даражасини аниқлаш, рақобатбардошлик омиллари таъсирчанлик даражасини ўрганиш, корхоналарга муносиб баҳо бериш, йўл кўйилаётган камчилик ва муаммоларни аниқлаш, ривожланган мамлакатлар тажрибаларидан самарали фойдаланиш, энгил саноат корхоналарининг рақобатбардошлигини бошқариш масалалари мавзунинг долзарблигини кўрсатади.



Маҳаллий тадқиқотчилар томонидан рақобатбардошликка эришиш ва рақобат устунликларини таъминлаш бўйича кўплаб илмий тадқиқот ишлари бажарилган. Ҳар бир корxonанинг доимий мақсади рақобатбардошликка эришишдир. Енгил саноат корxonалари нафақат рақобатбардошликка эришиш чораларини кўриши балки, рақобатбардошликни бошқариш тизимини ҳам ишлаб чиқишлари бугунги кунда долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Бошқарув бу субъектлар, органлар томонидан кишиларга ва иқтисодий объектларга кутилаётган натижага эришиш, уларни хатти-харакатини йўналтириш мақсадида уларга онгли таъсир кўрсатишдир. Демак, рақобатбардошликни бошқариш тизими муайян бошқарув механизминини ишлаб чиқишни талаб этар экан.

МДХ давлатларидан А.Е.Андреева тадқиқот ишида корхона рақобатбардошлигинини таъминлашда сифат менежментининг замонавий усулларини танлаш бўйича назарий ёндашувни ва рақобатбардошликни оширишнинг энг самарали усулларини танлаш алгоритминини ишлаб чиққан. Шу билан бирга, кўплаб тадқиқотчилар корxonалар рақобатбардошлигинини бошқаришнинг назарий жиҳатларини ўрганишган (1-жадвал).

**1-жадвал**

**“Корхона рақобатбардошлигинини бошқариш” тушунчасига берилган таърифлар**

Муаллифлар	Таърифлар
А.Л.Денисова, Т.М.Уляхин [6]	Рақобатбардошликни бошқариш бозорда корxonани рақобатбардошлик даражасини белгилаш, таъминлаш, кўллаб – қувватлаш учун бошқарув объектларига координацияланган таъсир ўтказиш жараёнидир.
В.Н.Парахина, Л.С.Максименко [10]	Рақобатбардошликни бошқариш деганда рақобат афзалликларинини ишлаб чиқиш, кўллаб – қувватлаш, фойдаланиш, ривожлантириш усулларинини топиш тушунилади.
Н.В.Данилюк [5]	Умумий кўринишда корхона рақобатбардошлигинини бошқариш, бозорни танланган сегменти учун мос келадиган рақобат устунлигинини таъминлаш ва кўллаб – қувватлаш, шакллантириш манбаларинини қидириб топишдир.

Н.А.Савельева [11]	Корхона рақобатбардошлигини бошқариш тизими бу рақобат устунликларини таъминлаш ва рақобат кучсизликларини бартараф қилувчи тизимни шакллантиришдир.
Л.Н.Чайникова, В.Н.Чайников [12]	Корхона рақобатбардошлигини бошқариш бир қатор бошқарув қарорларини шакллантиришга йўналтирилган фаолият бўлиб, у ўз навбатида олдига қўйилган мақсадларга мос ҳолда лидерликка эришиш учун турли хил ташқи таъсирларга бардош бера олишга йўналтирилиши керак.
Р.Е.Мансуров [9]	Рақобатбардошликни бошқариш стратегик мақсадларга мувофиқ етакчиликка эришиш учун ташқи таъсирларга қарши туришга қаратилган бир қатор бошқарув қарорларини шакллантиришга қаратилган фаолиятдир.

Рақобатбардошликни бошқариш жараёнининг табиати ва устуворлигини тушуниш борасида тадқиқотчи олимларнинг қарашлари ҳалигача уйғунлашмаган. Хусусан, Р.Е.Мансуров рақобатбардошликни бошқариш стратегик мақсадларга мувофиқ етакчиликка эришиш учун ташқи таъсирларга қарши туришга қаратилган фаолиятдир, деб ҳисоблайди. А.Кузмин эса рақобатбардошликни бошқариш рақобатбардош маҳсулотларни яратиш ва сотиш сиёсатини белгиловчи умумий бошқарув функцияларини амалга ошириш қисми сифатида тушунадилар. Ушбу соҳадаги мақсадлар ва масъулиятлар маълум бир рақобат тизимида режалаштириш, тезкор бошқариш, таъминлаш ва такомиллаштириш воситасида амалга оширилади. М.Галелюк корхонанинг маҳсулотлари рақобатбардошлигини таъминлаш ва яхшилаш мақсадида умумий функцияларни бажариш орқали амалга ошириладиган бошқаришнинг ўзига хос функцияси билан рақобатбардошликни бошқаришни назарда тутди.

Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш тизимини ишлаб чиқишда тўқимачилик маҳсулотларининг сифати ва нархига катта эътибор қаратиш зарур. Бунда маҳсулотнинг сифат кўрсаткичларига яъни фойдаланишдаги имкониятларига, эстетик кўринишига, хизмат муддатига, мато хусусиятини тез ўзгартирмаслигига кабиларга эътибор бериш зарур.

Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш тизимини ишлаб чиқишда корхоналарнинг умумий салоҳиятидан келиб чиқиш зарур, бунда

ишлаб чиқариш қуввати, жиҳозларнинг техник даражаси, ишчи-ходимлар малакаси, корхонанинг молиявий ҳолати, ишлаб чиқариш жараёнларини шакллари ва усулларига эътибор қаратиш керак. Корхонанинг рақобатбардошлигини бошқариш барча бўғинлардаги бошқарув жараёнларини ўз ичига олади, жумладан, инновацияни бошқариш, маҳсулот ва меҳнат сифатини бошқариш, маҳсулотни ишлаб чиқариш ва сотишни бошқариш, нархни бошқариш, ходимларни бошқариш ва бошқалар. Саноат корхоналарининг бир-биридан рақобат устунлиги бир қатор омиллар ёрдамида шаклланиши мумкин, буларга, номоддий ёки моддий ресурс, хом-ашё, инновация, харажатлар, ишчи кучи, техника-технология, сифат, нарх, рентабеллик кабилар таъсир кўрсатиши мумкин.


Корхоналарнинг рақобатбардошлигини таъминлаш учун оқилона бошқарув қарорини қабул қилиш, аввалги тажриба ва таҳлилларга таяниш ҳар доим ҳам самарали бўлмаслиги мумкин. Шунинг учун шундай бир механизм ишлаб чиқиш керакки, у корхонанинг рақобатбардошлигини таъминлашга катта хизмат қилсин. Корхонанинг рақобатбардошлигини бошқариш тизими - бу ички ва ташқи манфаатлар нуқтаи-назаридан кучли рақобат муҳитида хавф солувчи таҳдидларга муносиб жавоб бериш имкониятини бера оладиган механизмдир. Корхонанинг рақобатбардошлигини бошқариш тизими бозордаги рақиб маҳсулотларга нисбатан устунлик томонларини кенгайтириш, фарқли ижобий хусусиятларини ошириш имкониятини беради.

Корхонанинг рақобатбардошлигини ошириш учун нафақат энг муҳим кўрсаткичлар ва омилларни аниқлаш, балки ушбу параметрларни мунтазам равишда таҳлил қилиш керак. Таҳлилнинг асосий вазифаси бўлиб ўрганилаётган объектнинг рақобатбардошлик даражаси таркибидаги корхоналарнинг муносиблигини аниқлаш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар сифатини яхшилаш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ҳисобланади. Таҳлиллар ёрдамида аниқланган маълумотларни умумлаштирган ҳолда ёки маҳсулотга кўра, матрицали, эксперт баҳолаш, комбинацион каби усуллар ёрдамида корхоналарнинг рақобатбардошлик даражаси аниқланади. Корхоналарнинг рақобатбардошлик даражасига қараб унга мос стратегия ишлаб чиқиш ёки такомиллаштириш зарур.

Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш жараёнида корхонанинг бозордаги ҳақиқий даражасини баҳолаш, корхонанинг рақобатбардошлигини ошириш воситаларини аниқлаш ва муносиб стратегия



ишлаб чиқиш жуда мухим босқичлар ҳисобланади. Корхоналарнинг ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқишда, замонавий иқтисодий шароитларда бозорнинг талаблари яъни истеъмолчиларнинг маҳсулотга бўлган ўзига хос алоҳида талаблари ривожланаётганлигини инобатга олиш жуда муҳимдир.



1-расм. Енгил саноат корхоналарининг рақобатбардошлигини бошқариш жараёни

Корхона рақобатбардошлигини бошқариш тизимининг асосий мақсади ички ва ташқи муҳитда ташкилий, иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва бошқа ўзгаришларда унинг ҳаётийлигини ва барқарор ишлашини таъминлашдан иборат. Бунга эришиш учун корхона рақобатдошлигини бошқариш қуйидаги йўналишларга қаратилган бўлиши керак:

- ✓ корхонанинг рақобатдошлигини оширишга таъсир қилувчи салбий (зарарли) омиллар сонини зарарсизлантириш (йўқ қилиш) ёки чеклаш;
- ✓ корхона рақобатбардош устунликларини оширишга таъсир этувчи ижобий омиллардан фойдаланиш;

✓ бозор унинг ташқи мухитдаги ўзгаришларга кенг ва вақтинча мослашиши асосида корхонанинг рақобатбардошлигини ошириш ва такомиллаштириш;

✓ бошқарув ҳаракатларини ва қарорларини мослашувчанлигини таъминлаш, муайян бозорда рақобатнинг салбий ва ижобий омиллари таъсирини синхронлаштириш.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 14 декабрьдаги ПФ-5285-сонли “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

2. Андреева А.Е. Развитие конкурентоспособности предприятия на основе повышения эффективности применения методов менеджмента качества Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург – 2017. 24 б.

3. Жумаева, З. К. (2016). Эффективность стратегического управления предприятием. *Наука и образование сегодня*, (2 (3)), 60-62.

4. Жумаева, З. К. (2024). Необходимость инновационного подхода в управлении организациями.

5. Ruzmetov, V., Ruzmetov, S., Bakhtiyarov, S., Dzhumaeva, Z., & Juraev, K. (2023). Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 01001). EDP Sciences.

6. Жумаева З. К., Расулова Н. Н. Инновационный путь развития экономики Узбекистана //Теория и практика современной науки. – 2019. – №. 5. – С. 224-226.

7. Zhumaev, K. K., Sh, A. S., & Tukhtaev, B. O. (2017). Application of regular nozzles in contact heat and mass transfer apparatuses. *Problems of science and education*, (2), 28-29.

8. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *ЭКОНОМИКА*, (4), 455-458.

9. Данилюк Н.В. Обеспечение конкурентоспособности организаций сферы услуг на основе методов управления качеством: дис. ...канд. экон. наук: 08.00.05. - СПб., 2011. – 153 б.

**VISUAL REPRESENTATION IN MEDIA DISCOURSE**

**Scientific supervisor: Kayumova Shakhnoza Kabiljonovna**

Doctor of Philosophy in Philology,

(PhD) Termiz State University

**Student: Alikulova Yulduz Shukhrat qizi** Student of the Faculty of Foreign

Philology of Termez State University

E-mail: [yulduzalikulova08@gmail.com](mailto:yulduzalikulova08@gmail.com)

**Summary:** Change and development of phraseological meaning is not merely a feature of illustrations in a literary discourse, as we have seen from Thurber and from Lewis Carroll's Alice's Adventures in Wonderland (a sustained visual pun). Instantial stylistic use is a mode of figuration that is also common to various types of newspaper texts, which easily combine verbal and visual representation in creative thinking.

**Key words:** to put one's best foot forward, Phraseological metaphors, visualisation techniques, Multimodal metaphor.

***Put one's best foot forward:***

The PU to put one's best foot forward, which appears in the headline of a news item The Queen puts her best ( b a r e ) foot forward in The Times (22 April, 1999, p. 1). The headline is instantial use due to insertion of the epithet bare, which appears in brackets. This is highly unusual, as the base form never contains brackets. The brackets become a semantic technique. Moreover, the instantial constituent bare brings out the literal meaning of the constituent foot, which results in a phraseological pun as part of the process of semantic change in the instantiation of the phraseological metaphor. The pun is enhanced by a big photograph of Queen Elizabeth with one of her shoes off (with one bare foot).

To put one's best foot forward is a polysemous PU. One of the meanings is "to make the best possible showing".<sup>9</sup> When the Queen celebrated her 73<sup>rd</sup> birthday in Korea she had to observe local custom by removing her white court shoes to enter a traditional house in her stockinged feet. The literal meaning of shoes is spread throughout the news item: the Queen is kicking them off and wriggling her feet back into them again. The phraseological pun permeates the text, contributing to its coherence and cohesion.

***Phraseological metaphors:***



Phraseological metaphors may be visualised and sustained not only in news items and articles of a general type but also in serious specialist articles, as, for instance, the financial article *Send Your Money Home in Time* (29 September, 1997, p. 44) dealing with interest rates, stocks, and mortgages. The metaphorical focus of the article is the concept home. The idea of home as a desired place to live in is manifest in the use of three phraseological units that share the common constituent home, occurring within the limits of a short article. The first lines read as follows:

Your home has always been your castle, and it used to double as a piggy bank,  
Until a classic late-'80s bust crushed the notion of housing as an investment.  
Time, 29 September, 1997, p. 44

The article actually deals with the nonfigurative meaning of home, discussing existing homes and house prices and the idea of a house as an investment. The article ends with another PU with the constituent home, creating a frame construction and acting as a coda:

A house as an investment is a pitch that hasn't opened many doors lately.  
But today, home isn't just where the heart is; It's where the smart Money  
is too.  
Time, 29 September, 1997, p. 44

The base form of the PU home is where the heart is has a positive meaning: your true home is in the place you love most.<sup>10</sup> In the text the PU is used in the opposite meaning. The PU is extended by a parallel construction, which conveys the message of the article: a house is a good investment now. Usually phraseological puns have one or several constituents, which are used in their literal meaning(s). In this case the pun is created through an associative link between a home and a house.

***Visualisation techniques:***

Use of a symbol is one of the visualisation techniques. For identification of instantial graphic implications, it is important to know the cultural background: The use and symbolic meaning of the currency sign. Graphic properties are generally used to represent the extra-linguistic world in an accurate manner. The visual effect works together with the verbal in creation of a visual pun; it is a way in which "words, typography and pictures are woven together to form multimodal texts" (Goodman and Graddol 1996: 1).

***Multimodal metaphor:***

Multimodal metaphor is the most common technique of stylistic use of PUs on the Internet. Let me take one PU and examine a number of its visual representations. For instance, over the last decade the Internet has been teeming with various images featuring the PU money laundering. Though this term is informal as to its stylistic level, it is in standard use in criminal law; for example, the official name of the US law is the Money Laundering Statute. Thus, it is a terminological PU or a terminological phraseologism according to Nikulina (2005).

The global culture of using both verbal and nonverbal techniques on the Internet has resulted in multimodal discourse, which resorts to several manifestation modes of expression.<sup>12</sup> This development is also seen in numerous sites dealing with money laundering and conferences dedicated to it (Figures 6.11, 6.12, 6.13). Use of symbols is one visualisation technique that helps to depict the abstract in terms of the concrete multimodal manifestations.

#### **THE LIST OF USED LITERATURE:**

1. See Webster's New Universal Unabridged Dictionary ([1983] 1989: 713).
2. See Cambridge International Dictionary of Idioms (1998: 195).
3. See Money laundering is a global problem (2008).
4. For the semiotics of advertising see Beasley and Danesi (2002).

**IMPLICIT VISUAL MESSAGES AND A DISCOURSE DIMENSION**

**Scientific supervisor: Kayumova Shakhnoza Kabiljonovna**

Doctor of Philosophy in Philology,  
(PhD) Termiz State University

**Student: Alikulova Yulduz Shukhrat qizi** Student of the Faculty of  
Foreign Philology of Termez State University  
E-mail: yulduzalikulova08@gmail.com

**Summary:** Visual representation of a phraseological image may convey implicit messages that are not directly expressed in text. This instantiation is a case of concurrent visual and verbal allusion. Interesting aspect of visual representation is the visual development of figurative meaning.

**Key words:** a black eye, a family tree, to hang by a thread, a spin doctor.

**Black eye:**

Nonverbal representation beats the expected images of two well-known British political leaders: Tony Blair and Duncan Smith. If you take a look at the newspaper page, actually the first thing that strikes you is a black eye on each face in the literal sense of the word. "Perceiving is also thinking", Arnheim argues ([1954] 1974: 5). The thought of an accident or a simultaneous personal assault is quickly discarded as you start reading the article. The two leaders have not been beaten physically but politically or rather metaphorically. The figurative meaning of a black eye (PU) comes to the fore: a defeat, rebuff, several Blow.<sup>14</sup> The visual conveys the acute pain of failure: the pain of having been defeated. The first paragraph gives a verbal clue by way of extended metaphor: "Duncan Smith and Blair were battered by Brent. Tom Baldwin and Greg Hurst ask whether this is a breakthrough, or just another by-election blip" (The Times, 20 September, 2003, SL, p. 4M). In fact, the two leaders metonymically stand for their political parties (Labour and Conservative) which had failed to win the by-election.

The instantiation reveals the interconnection of stylistic techniques: it shows how a phraseological metaphor turns into a visual pun. The base form of the metaphorical PU a black eye appears neither in the text of the article nor in the headline, nor indeed is a caption present. "Pus can be visualised without mentioning a single constituent" (Fiedler 2007: 104).

**A family tree:**



The meaning of the PU a family tree is based on a common metaphorical mapping. In its base form the PU is a conventional phraseological metaphor, available to users of English. First the PU appears in core use, that is, in its most common form and meaning. As the example shows, no change occurs in phraseological meaning in the text; the figurative thought is not developed, nor is it sustained:

A family tree

Then for the next two hundred years the family tree shows a succession of soldiers – noble, high-spirited fellows, who always went into battle singing, right behind the army, and always went out a-whooping, right ahead of it.

Mark Twain, *A Burlesque Biography*, p. 178

In cognitive psychology the image is generally viewed as a mental representation, as a picture in the head. As Steen points out, when processing metaphors, readers are able to construct at least three different kinds of mental representation: Linguistic representation of the meaning of a metaphor, conceptual representation of the referential content, and communicative representation of the message it is attempting to convey (Steen 1994: 168).

In discourse, a phraseological image may be sustained over longer stretches of text (see Ch. 3.4), as it is in this sketch. The next paragraph contains instantial stylistic use. Creative expression of a new idea is achieved by instantiation of an extended metaphor. The metaphorical meaning is extended, creating sub-images which become part of the associative metaphorical network sustained on the basis of the image of the PU:

This is a scathing rebuke to old dead Froissart's poor witticism that our family tree never had but one limb to it, and that that one stuck out a tright angles, and bore fruit wInter and summer.

Mark Twain, *A Burlesque Biography*, p. 178

***To hang by a thread:***

Visual representation of stylistic use has not exhausted itself. Further development of media and multimodal possibilities offers interesting new turns in visual discourse. Identification and interpretation of stylistic use in multimodal texts is more challenging. Interaction between the visual and its verbal counterpart has “a perceptual immediacy” that is lacking in language alone (Forceville 2008: 463). It is common for magazines to use a PU on their cover and pick it up again in the cover story, which may be pages

away. The title of the cover page catches the eye. However, only the interrelation between the two modes of expression provides a full understanding of the multimodal text. For instance, the cover page of Time(Europe edition, 18 December, 1989) contains both visual and verbal allusion to the PU to hang by a thread. The cover is in three colours: the top is black, the middle is red, and the lower part is yellow: these are the colours of the German flag.

***A spin doctor:***

Concurrently, spin is also a direct allusion to another PU, a spin doctor, a PR professional who specialises in spin tactics to manipulate public opinion and provide a favourable bias. The meaning of the PU to skate on thin ice is enhanced by the ominous headline Heading for trouble on the front cover.

Creative expression of a new idea is achieved by an instantiation of extended metaphor, pun, and allusion in a process of meaning extension in one visual context. The visual implications of the pun help to shift from direct meaning to figurative meaning and back again. The sustained visual image becomes part and parcel of the meaning of the PU in the given instantiation. The abstract idea has been translated into visual form to render a hazardous situation. Thus, the visual representation becomes a genuine part of the concept of risk. The textual and visual representation of a thinking process is profoundly influenced by political, social, and cultural processes that lie behind the specific space and time, that is, the context.

**THE LIST OF USED LITERATURE:**

1. See Satcor Report on International Conference “Stop Money Laundering” (2002).
2. Dictionaries give two meanings of a black eye – direct and figurative: (1) a discoloration of the skin around the eye; (2) (fig.) defeat, rebuff, heavy blow, failure (Kunin 1967a: 294; Merriam-Webster’s Online Dictionary 2009; Oxford English Dictionary 2009).
- 3 A family (fruit) tree – a fruit tree bearing different varieties of the same fruit grafted on to it (Chambers 20<sup>th</sup> Century Dictionary [1983] 1987: 455).
4. For more on use of several tropes working together in natural language, see Gibbs ([1994] 1999: 449–454). For concurrent use of stylistic techniques in phraseological instantiations, see Naciscione (1976: 160–180); Ch. 5.3 of this book.
5. For a discussion of the verbal and visual potential of this proverb, see Mieder (1993: 133–149).

**Qizlar, autizm identifikatorlari va ta'lim**

Qo'qon universiteti

**Xusanova Madinabonu Muzaffarjon qizi**

Boshlang'ich ta'lim 3 kurs

**Annotatsiya**

Ushbu bobda qizlar, autizm identifikatorlari va ta'lim haqidagi hamkorlikdagi avtoetnografiya haqida xabar beriladi. Otistik bo'lmagan uchta tadqiqotchi va autizmlilik deb aniqlagan to'rt tadqiqotchi maktab yillari davomida autistik o'ziga xoslikning rivojlanishiga turli xil ijtimoiy-madaniy omillar qanday ta'sir qilganini o'rganishdi. To'rtta autizmlilik ayol o'zlarining maktab tajribalari va bu tajribalar ularning rivojlanayotgan shaxsiyatiga qanday ta'sir qilgani haqidagi aks ettirilgan avtobiografik ma'lumotlarni hujjatlashtirdi va jamoa bilan o'rtoqlashdi. Autistik qizlar uchun maktablarda inklyuziv amaliyotni qo'llab-quvvatlash va ularning rivojlanayotgan shaxsiyatini tarbiyalash bo'yicha bir qator takliflarni ishlab chiqishda foydalanilgan ma'lumotlardan bir qator mavzular paydo bo'ldi.

**Kalit so'zlar:**

Autizm, birgalikda avtoetnografiya, qizlar, identifikatsiya, maktab

**Abstract**

This chapter reports on a collaborative autoethnography about girls, autism identities, and education. Three researchers who are not autistic and four researchers who identify as autistic investigated how various sociocultural factors influenced development of autistic identity across the school years. The four autistic women documented and shared autobiographical data with the collective about their school experiences and reflections of how these experiences impacted their developing identity. A number of themes emerged from the data that were used to inform the development of a series of propositions to support inclusive practices in schools for autistic girls and nurture their developing identities.

**Keywords:**

Autism, Collaborative autoethnography, Girls Identity, School  
Autizm nima?

Autizm (grekcha «autos» – «o'zim» degan so'z) – bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli



bola o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqelik bilan bog'liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Simptomlarning har xilligi va kasallik o'zgaruvchanligi ushbu kasallikni qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha.

Autizm kasalligini kelib chiqish sabablari

Olimlarning fikricha, autizm kasalligini kelib chiqish sabablaridan biri bu – homilani ona qornidalik davrida ma'lum bir turdagi oqsillarning yetishmovchiligi. Ikkinchi sababi, organizmda ikki xil og'ir metalning, qo'rg'oshin va simobni, ko'payib ketishi. Uchinchi sabab atrof muhitni ekologik buzilishi va homiladorlik paytida kuchli stress holatlarini kechirish. Anemiya hamda qon bosimning oshishi, buyrakda bosim oshishi – bularning hammasi autizimni kelib chiqish sabablari hisoblanadi. Bundan tashqari autizm kasalligi belgilarining kengayishini, ya'ni rivojlanishdan ortda qolish belgilari Retta sindromi, Aspergera sindromi va autizimning klassik simptom komplekslarining ko'p uchrashi. Shuningdek, kasallik haqida ma'lumot ko'paymoqda. Ilgari tortinchoq, uyatchan, introvert va shizofreniyaga moyil bolalarni «g'ayritabiiy bolalar» deyishgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bunday bolalarni autistik bolalar (autizm) deyishmoqda.

***Autizm kasalligi yoshga qarab quyidagilarga bo'linadi:***

Erta bolalik autizmi – 2 yoshgacha;

Bolalik autizmi – 2-11 yoshgacha;

O'smirlik autizmi 11-18 yoshlargacha.

***Autizm belgilari***

- Ijtimoiy qoloqlik;
- Muloqotda o'z-o'zi bilan gaplashish, har xil qo'l harakatlari qilish;
- Umumiy belgilarning erda boshlanishi.
- Bolaning onasiga bee'tiborligi (kulish, jismoniy harakatlar, ovoz chiqarishlar);
- Bolaning «tayyorgarlik» holati yo'qligi ya'ni uni ko'tarishga uringanda qo'llarini cho'zmasligi, tizzalarida turishga harakat qilmasligi, emishdan butunlay to'xtashi;

- Jamoa bilan o'ynashni istamaslik, ota-ona va boshqalar bilan o'ynaganda injiqlik qilish, yolg'iz holda o'ynashni xohlash;

- Ovoz, yorug'likka bo'lgan sezuvchanlikning oshib ketishi, bundan tashqari qo'rqitish, baqiriq, arg'imchoq uchish kabi o'yinlar paytida injiqliklar qilish;
- Gapirish qobiliyatining susayishi, hatto mutizm holatigacha. Exolaliyalar, ya'ni so'zlarni takrorlash, ota-onadan eshitgan iboralarni qayta-qayta aytib yurish yoki multfilmda eshitgan so'zlarni doimo aytib yurish, bu Asperger sindromi deyiladi;
- Ovqatni tanlab yeyish, ishtaha sustligi, uyquning yomonlashuvi;
- Buyruqlarni bajarmaslik, buyumlarni ko'rsatsa qaramaslik, o'zining ismiga e'tibor bermaslik;
- Belgilangan tartibga qat'iy rioya qilishi, ya'ni bir vaqtda uyg'onishi, buyumlarni bir joyda saqlash, jismlar shakliga qarab saralash va shu kabilar;
- So'zlashish qobiliyatining yaqqol buzilishi kattalar kabi iboralar ishlatib gapirish, bir xil so'zlarni takrorlab yurish, dialogga kirishmaslik;
- Xavflardan qo'rqmaslik: balandlik, avtotrassa, hayvonlardan qo'rqmaslik, lekin oddiy buyumlardan qo'rqish, masalan qaynab turgan choynak, elektr yoqgich va shu kabilar;
- Harakatlardagi takrorlar aylanib turish, tebranib turish, imo-ishoralarning takrorlanishi;
- Jahldorlik, kulgi, vahimaning o'z-o'zidan paydo bo'lishi;
- Ba'zi bir g'ayritabiiy holatlarga e'tibor qaratish, masalan eslab qolish qiyin bo'lgan sonlarni eslab qolish, qo'shiqlar so'zlarini esda saqlash, o'qib bo'lmaydigan yozuvlar yozish;

O'smirlik autizmida belgilarga autistning gormonal o'zgarishlari ham qo'shiladi. Diagnostika faqatgina belgilarga asoslanib, psixiatr shifokor qo'yadi. Ko'pchilik autist bolalar adabiyotlarda keltirilgan autizm belgilariga mos kelmasligi mumkin. Ba'zi hollarda autist bolalar insonlar bilan muloqotga ham kirishishlari mumkin, bu esa diagnoz qo'yishda qiyinchiliklar tug'diradi.

### ***Autizmi davolash***

Davolash maqsadida ortda qolayotgan jihatlarni korrektsiya qilish uchun barcha turdagi autist bolalarga mos keladigan quyidagi chora tadbirlar qo'llash mumkin:

- Gapirish qobiliyatini yaxshilash maqsadida logoped bilan mashg'ulotlar olib borish;
- So'zlashish uchun rasmi kartochkalardan foydalanish yoki planshet, kompyuterda so'zlarni yozib o'rgatish;

- Bola bilan har xil o'yinlar o'ynash, bir sferada faqat bir mutaxassis bilan;
- Medikamentoz davo faqatgina qo'shimcha sifatida bolada kuchli agressiya bo'lsagina buyuriladi.

Autizmga chalingan bemor bolalarni qanday bo'lsa, shunday qabul qilish kerak. Kattalar buni o'z vaqtida aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlashlari zarur. Autizm kasalligi homila ona qornidalik davridayoq uning bosh miyasi rivojlanishida ba'zi oqsillarning yetishmasligi sababli paydo bo'lishi mumkin, degan taxminlar mavjud. Bu xastalikning irsiyat bilan bog'liqligi hali to'liq o'rganilmagan. Amerikalik va fransiyalik olimlar guruhi bosh miya rivojlanishining ilk bosqichlarida hid sezishda ishtirok etadigan o'zak hujayralarni o'rganish zarur, degan xulosaga kelishdi. Chunki, burundan osonlik bilan olinadigan biopsiya surtmasi bu hujayralarni o'rganishda bebaho usul hisoblanadi.


#### ***Erta bolalik autizmi sindromi***

Erta bolalik autizm sindromi (qisqartirilgan RDA) autizmga xos bo'lgan [sindrom](#) bo'lib, birinchi marta kasallik 1943-yilda Leo Kanner(Kanner autizmi) tomonidan tasvirlangan .

#### ***RDA ning tashqi ko'rinishlari***

*Autizm* . Bolada tashqi dunyo bilan hissiy aloqa o'rnatish qiyin. O'zining hissiy holatini ifodalash va boshqa odamlarni tushunish muammoli bo'ladi. Ko'z bilan aloqa o'rnatishda, imo-ishoralar, yuz ifodalari, intonatsiyalar yordamida odamlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Hatto yaqin odamlar bilan ham, bola hissiy aloqalarni o'rnatishda qiyinchiliklarga duch keladi, lekin ko'proq darajada autizm bolaning begonalar bilan muloqotda namoyon qiladi.





Autizm miyaning ko'p qismlariga ta'sir qiladi. Autizm Parkinson kasalligi kabi miyaning boshqa ko'plab kasalliklaridan farqli o'laroq, molekulyar darajada ham, hujayra va tizim darajasida ham aniq yagona mexanizmga ega emas; autizm nomi ostida nima birlashtirilgani noma'lum - mutatsiyalar ta'siri kichik miqdordagi umumiy molekulyar zanjirlarga birlashadigan bir nechta kasalliklar yoki boshqacha mexanizmlarga ega bo'lgan katta kasalliklar guruhidir. Ko'rinib turibdiki, autizm rivojlanish bosqichida ta'sir qiluvchi va miyaning ko'p yoki barcha funktsional tizimlariga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar ta'sirining natijasidir .

### **Xulosa:**

Agar bir xil bo'lish kerak bo'lganda dunyodagi 30 milliard aholi o'xshash bo'lib tug'ilardi. Ko'rinish, fikrlar singari ruhiy holatning turfa bo'lishi bu esa onda-sonda yoki doimiy kuzatilishi normal. Teng huquqli bo'lish, to'laqonli imkoniyatlardan foydalanish uchun insonning qanday ekani, nega bunday ekanining zarracha ahamiyati yo'q.

Hech kimni qahramonga aylantirish yoki qurbon sifatida ko'rsatish emas, shunchaki sha'ni har nedan ustun bo'lishi kerak bo'lgan (harholda televideniye va plakatlarda shunday yoziladi) eng oliy qadriyat — inson sifatida ko'rilish kerak, xolos.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati**

1. O'zbekiston Respublikasi «Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi Qonun -1991 yil.
2. "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"- XTV 234-sonli buyrug'i-2005 yil 19 sentyabr.
3. "Nogiron shaxslar huquqlari" to'g'risidagi Deklarasiya (1975yil)
4. "Bola huquqlari to'g'risidagi" Konvensiya -1989 yil;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 yanvarda 573-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy himoya yili" Davlat Dasturi.
6. "Aqli zaif shaxslar huquqlari" to'g'risidagi Deklarasiya-1971yil
7. "Ta'lim xamma uchun" Dasturining Milliy rejasi-Toshkent-"Arnaprint-2003 yil;
8. "Dakarskiye ramki deystviy"- Fransiya-"YuNESKO"-2000 yil.
9. Integrirovannomu obucheniyu detey s narushennshi zreniya «Defektologiya»- 2006/ 3
10. Integrirovannoye obucheniyeye i vospitaniye detey s otkloneniyami razvitiya v Armenii. Defektologiya 2006/ 3

**MILLIY MAQOM SAN'ATI VA MA'NAVIYATINING YOSHLAR  
TARBIYASIDAGI O'RNI**

**To'xtasin Rajabov Ibodovich**

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va  
madaniyat kafedrası professori, p.f.d.(DSc)

**Behruz Boltaev Hamidovich**

Bux. DU Musiqa ijrochiligi va madaniyat  
kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada milliy maqom san'ati, Shashmaqomning tuzilishi, uning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda ma'naviyat tarbiyasida milliy maqom san'atining o'rni va ahamiyati xususida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** milliy maqom, musiqiy obraz, ashula va cholg'u bo'limi, musiqiy an'ana, ijrochilik uslubi, musiqiy tayyorgarlik, musiqiy turkumlar.

Milliy ma'naviyatimiz rivojida musiqqa san'ati alohida o'rin tutadi. Milliy musiqqa san'atning eng qadimiy va sara asarlari xalq ommasiga keng tarqalgan, uning madaniy hayotida chuqur singib ketgan. Binobarin, musiqqa hayot voqealarini musiqiy obrazlar vositasida aks ettiradi

Buyuk donishmand Abu Nasr Forobiy o'zining "Katta musiqqa" kitobida, musiqqa nazariyasi, ohanglarining turlari, kelib chiqish sabablari, kishiga ma'naviy, ruhiy ta'siri haqidagi qimmatli fikrlarini bildirgan.

Musiqaning milliy ma'naviyatimizga ta'sir kuchi shu qadar qudratliki hatto uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan da allaqachon o'z isbotni topgan. Abu Ali Ibn Sino musiqaning ta'sir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin, degan g'oyani ilgari surgan edi.

Milliy maqom san'atimizning gultoji bo'lmish "Buxoro Shashmaqomi" XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musikachilari va musikashunos olimlari tomonidan olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda topganligi uchun "Buxoro Shashmakomi", deb yuritiladi. U kasbiy-ustozona musiqqa namunasi bo'lib, yirik hajmga ega, murakkab



tuzilishli, umumiy soni 250 dan ziyod ashula, cholgʻu asarlarni oʻz ichiga olgan tizimli musikiy majmuadir.

Maqomlarning cholgʻu boʻlimlarida bir xil nom bilan ataladigan cholgʻu qismlari boʻlib, ularning ohanglari turlicha boʻlsa-da, doyra usullari bir hildir. Ular Tasnif, Tarjeʻ, Gardun, Muhammas va Saqil mashhurdir.

Mustaqillik yillarida oʻzbek milliy maqom sanʼatining noyob namunalarini keng targʻib etish, uni asrab avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz sanʼatimizga hurmat va eʼtibor tuygʻularini kamol toptirishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda "Oʻzbek milliy maqom sanʼatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari toʻgʻrisida" gi PQ-3391-sonli Qarorda "Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom sanʼati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy oʻzlikni anglash tuygʻusi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish" vazifasi qoʻyildi [1].

Fidoyi ajdodlarimiz tufayli milliy maqom sanʼatimiz oʻzligini saqlab qoldi, sayqallandi, takomillashib, milliy va umumbashariy qadriyat sifatida oʻz oʻrniga ega boʻldi. Asrlar davomida oʻzbek qoʻshiqchilik sanʼati oʻz milliy yoʻnalishini saqlab qoldi. Bunda atoqli sanʼat dargʻalarining mehnati beqiyosdir. Bu haqda turli risola va maqolalar yozilgan, ularning ijodi ilmiy tadqiqot obyekti sifatida maxsus oʻrganilgan. Bunday ishlar yosh avlod maʼnaviy kamolotini oʻylab qilinayotgan xayrli ishlardan boʻlib, yoshlarimizni maʼnaviy merosimizni qadrlashga, undan saboq olishga undaydi. Zero, oʻzbek qoʻshiqchilik maktabi bunday siymolarga nihoyatda boy.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib anʼanaviy qoʻshiqchiligimiz yangi pogʻonaga koʻtarildi. Muhiddin Qoriyoqubov, Orif Alimaxsumov, Komiljon Otaniyozov, Tavakkal Qodirov, Ochilxon Otaxonov, Orifxon Hotamov, Muhammadjon Karimov, Odiljon Yusupov, Berta Davidova, Fattohxon Mamadaliyev, Kommuna Ismoilova, Murodjon Ahmedov, Rasulqori Mamadaliyev, Faxriddin Umarov, Tolibjon Badinov, Quvondiq Iskandarov, Alijon Hasanov, Neʼmatjon Qulabdullayev, Hadya Yusupova, singari mashhur hofizlar el orasida mashhur boʻldi.

XV111 asrning ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro «Shashmaqom»i "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" maqomlari oʻzining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan boʻlsa, Fargʻonaning "Chor maqom"i (Toʻrt maqom), "Dugoh Husayniy" ning yettita yoʻli, "Chorgoh"ning oltita ijrochilik yoʻli,

“Shaxnozi Gulyor”ning oltita ijrochilik yo‘li hamda “Bayot” yo‘llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijrosi mukammalashib bordi.

Xorazm maqomlarida ham yuqorida ta’kidlangan olti maqom ijrosini alohida uslubiy va o‘ziga xos yo‘nalishini kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi maqom sifatida chertim yo‘lidagi “Panjgoh” maqomi kiritilgan. Shuning uchun avloddan avlodga o‘tib kelgan bebaho musiqiy boyligimiz sanalmish Buxoro, Xorazm va Farg‘ona, Toshkent maqomlari, betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug‘ ne’mat sifatida ardoqlanadi.

Xalq san’atining ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov: “Milliy musiqa san’atimiz bamisoli bir daraxt bo‘lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg‘onadir”, - deb ta’riflagan ekanlar. Ustozning bu so‘zlarida katta ma’no yotadi.

Bugungi kunda ustozlar an’anasini davom ettirishib, qator san’atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Munajat Yo‘lchiyeva, O‘lmas Olloberganov, Zamira Suyunova singari taniqli san’atkorlarimiz ustozlar maktabiga suyangan holda o‘zlariga xos ijro yo‘llari va uslublari bilan qo‘shiqchilik xazinasiga sezilarli hissa qo‘shmoqdalar.

Xullas, milliy maqom san’atimiz turli ijtimoiy davrlar va tarixiy sharoitlarda yangi ijro yo‘llari bilan boyitilib, sayqal topib, jilolanib kelgan. Avlodan-avlodga o‘tib kelayotgan, xalqning orzu-umid, armonlari, intilishlarini o‘zida mujassam etgan maqomlarimiz ixtisoslashtirilgan san’at maktablari, musiqa oliy o‘quv yurtlari dasturlaridan keng joy olgan. Xalqimiz yaratgan musiqa durdonalari hamisha tarbiyada, mehnatda, ijtimoiy munosabatlarda muayyan darajada o‘z aksini topadi, atrofdagi go‘zalliklarni idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi, ma’naviyatni boyitadi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // “Xalq so‘zi”, 2019, 7-aprel.
2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O‘zbekiston.2000.-43 b.
3. Soipova.D.Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma.-T,-Fan va texnologiyalar markazi nashriyoti, 2009-yil.

4. Мустафаев Б. И. Некоторые вопросы развития профессиональных навыков учителя музыкальной культуры //Academy. – 2020. – №. 11 (62). – С. 47-50.
5. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 26-28.
6. Мустафаев Б. И., Нуруллаев Б. Г. ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБУЧЕНИЯ ДЕТСКИМ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ В СИСТЕМЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Academy. – 2021. – №. 3. – С. 45-47.
7. Мустафаев Б. МУЗЫКАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АБДУРАУФА ФИТРАТА //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 361-364.
8. Мустафаев Б. И. СОДЕРЖАНИЕ МУЗЫКАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В 70-Е ГОДЫ ХХ ВЕКА //Наука и технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2.
9. Мустафаев Б. MUSIQA MADANIYATI FANI O 'QITUVCHILARINI INNOVATSION FAOLIYATGA YO 'NALTIRISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
10. Мустафаев Б. UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARIDA MUSIQA MADANIYATI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
